16. Кудбиев Ш. Оценка развития рынка труда и занятости населения // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. - № 6, noyabr-dekabr, 2020-yil.
17. Неустойчивая занятость в Узбекистане: состояние, проблемы и пути их решения. Т., ПРООН, 2018. – С.6.
18. Shakarov Z. O‘zbekistonda mehnat resurslari mobilligining ekonometrik tahlili //"O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi" 2017, 15-16-sentyabr, 1-son.
19. Оценка системы социальной защиты в Узбекистане на базе основного диагностического инструмента (CODI)// совместный отчет МОТ, ЮНИСЕФ и Всемирного банка,2020 - С.20.
20. В Узбекистане ввели «Железную тетрадь» помощи обнищавшим из-за карантина.// https://rossaprima-vera.ru/news/5936cb6d.
21. Текущий архив областного хокимията Бухарской области, 2022 . – С. 148.
22. Текущий архив областного хокимията Навоийской области, 2021. – С.65.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/1]
ISSN 2181-7324

TARIX
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 9(94)

***Baxtiyor BOLTABAYEV,***
*Namangan davlat universiteti o‘qituvchisi*
*E-mail: baxtiyor5577@gmail.com*

*Tarix fanlari nomzodi, dotsent A.Erqo‘ziyev taqrizi asosida*

## DEPRIVATION OF THE RIGHT TO ELECTION IN TURKESTAN 1907-1917 YEARS

Annotation

In this article, the deprivation of the right to vote in Turkestan in 1907-1917 years, 1.2.3. duma we can see the restriction of voting rights in relation to Turkestan at the meetings of the State Duma, the fact that the actual proposals were not taken into account, and the election legislation was violated at all the meetings held above. In addition, we can see that they are urged to reduce the number of participants from Turkestan as much as possible in the activities of each Duma meeting. We can see that all the ideas in it are aimed at strengthening the Russian Empire.

**Key words:** Duma activity in Turkestan, electoral legislation, deprivation of voting rights of Turkestan, violation of electoral legislation, participation of Turkestans in Duma meetings, activities of deputies in the Duma, the emergence of protests against adopted laws.

## ЛИШЕНИЕ ИЗБИРАТЕЛЬНОГО ПРАВА В ТУРКЕСТАНЕ 1907-1917 ГГ

Аннотации

В данной статье лишение избирательных прав в Туркестане в 1907-1917 гг., 1.2.3. думы мы можем видеть ограничение права голоса в отношении Туркестана на заседаниях Государственной Думы, то, что фактические предложения не учитывались, а избирательное законодательство нарушалось на всех проведенных выше заседаниях. Кроме того, мы видим, что они призывают максимально сократить число участников из Туркестана в деятельности каждого думского заседания. Мы видим, что все идеи в нем направлены на укрепление Российской империи.

**Ключевые слова:** Думская деятельность в Туркестане, избирательное законодательство, лишение Туркестана избирательных прав, нарушение избирательного законодательства, участие Туркестане в думских заседаниях, деятельность депутатов в Думе, возникновение протестов против принятых законов.

## 1907-1917 YILLARDA TURKISTONNI SAYLOV HUQUQIDAN MAHRUM QILINISHI

Annotatsiya

Mazkur maqolada 1907-1917-yillarda Turkistonni saylov huquqidan maxrum qilinishi, 1.2.3. davlat duma yig‘ilishlarida Turkistonga nisbatan saylov huquqlarini cheklanishi, amaldagi berilgan takliflarni inobatga olinmagani, yoquridagi o‘tkazilgan barcha yig‘ilishlarda saylov qonunchiligini buzilganligini ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari har bir duma yig‘ilishi faoliyatida Turkistondan qatnashuvchilarni imkon qadar sonini kamaytirishga iltilganliklarini ko‘rishimiz mumkin. Undagi barcha g‘oyalar Rossiya imperiyasini mustaxkamlash uchun qaratilganligini ko‘rishimiz mumkin.

**Kalit so‘zlar:** Turkistonda duma faoliyati, saylov qonunchiligi, Turkistonni saylov huquqidan maxrum qilinishi, saylov qonunchiligini buzilishi, Duma yig‘ilishlarida turkistonliklarni ishtiroki, dumada deputatlar faoliyati, qabul qilingan qonunlardan noroziliklarni kelib chiqishi.

**Kirish.** Ikkinchi Davlat Dumasining tarqatilish oqibatida aks etgan mamlakatdagi siyosiy voqelikning o‘zgarishi saylov tizimini tuzatish masalasini kun tartibiga qo‘yadi.

Podshoning 1907-yil 3-iyundagi farmonida Dumaning tarqatilishi bilan bir qatorda yangi saylov qonunini e’lon qilish taklif qilinadi. Xususan, unda shunday deyilgan edi: "Rossiya davlatini mustahkamlash uchun yaratilgan Duma, ruhan rus bo‘lishi kerak. Davlatimiz tarkibiga kiruvchi boshqa millatlar Davlat Dumasida o‘z ehtiyojlari vakillariga ega bo‘lishi kerak, ammo ular sof rus masalalarida hakam bo‘lish imkoniyatini beradiganlar qatoriga kirmasligi kerak va bo‘lmaydi ham. Aholisi yetarli darajada fuqarolikka erishmagan davlatning xuddi shu o‘lkasida Davlat Dumasiga saylovlar vaqtincha to‘xtatilishi kerakdir deyilgan edi[1].

Ushbu qoida milliy hududlarga nisbatan yangi davlat siyosatining asosini tashkil etdi. Hukumat O‘rta Osiyo xalqlarini "siyosiy jihatdan yetuk emas" deb e’lon qilib, Turkiston va Cho‘l o‘lkasi xalqlarini butunlay bu huquqdan mahrum qiladi.

Shunday qilib, III Dumadagi (1907-1912) milliy vakillik 100 ga yaqin deputatga, IV Dumada (1912-1917) esa 76 o‘ringa qisqartiriladi[2].

Turkistonning tub aholisining reaksiyasi uzini uzoq kuttirmadi. "... Yagona yo‘l, – deb yozadi "Tujjor" gazetasi, – bir joyga yirik shaharlardan, imkoni bo‘lsa Turkistonning besh viloyatining barcha shaharlaridan bir deputatdan yig‘ib, ularni... iltimosnoma bilan III Davlat Dumasi deputatlari tarkibiga kiritish iltimosi bilan Sankt-Peterburgga jo‘natishdir”[3].

Keyinchalik Muvaqqat hukumat hokimiyat tepasiga kelishi bilan M.Behbudiy Turkistonning o‘zida mintaqaga mos qonun va farmonlar chiqarishi mumkin bo‘lgan ma’lum bir Majlisni tashkil etishni taklif qiladi. Bu Majlis Rossiya hukumati bilan musulmonlar o‘rtasida vositachi bo‘lishi mumkin edi[4].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Turkistonda ko‘p yillar davomida bo‘lgan II Davlat Dumasi deputati A.Zubarov "Bu hududning madaniyatsiz va siyosiy yetukligi haqida faqat katta johillar yoki "chernosotenlar" gapira oladi" deb hisoblar edi[5].

Bir qator xorijiy olimlarning fikriga ko‘ra, 1907-1917-yillarda ijtimoiy, siyosiy va milliy muammolarning yonuvchan aralashmasi tom ma’noda portladi, imperiyaning ba’zi chekkalarida esa milliy harakatlarning portlovchi kuchini namoyish etdi. Bu qoidani Turkistonga to‘liq bog‘lash mumkin.

Yangi qonundan norozilik aholining barcha qatlamlari: milliy ziyolilar, savdo va sanoat doiralari, ishchilar tomonidan bildirilgan edi. Mahalliy matbuotda "Turkistonlik odamning ko‘chadagi turmush tarzi qonunchilik yo‘lida rivojlanishiga mo‘ljallan-magan" deb yozilgan edi[6].

1907-yildan 1917-yilgacha bo‘lgan o‘n yil davomida Turkiston uchun saylov huquqini tiklash masalasi ham Duma deputatlari, shuningdek ilg‘or Turkiston jamoatchiligi tomonidan parallel ravishda muhokama qilindi. Oxir oqibat, mahalliy aholi bilan bir qatorda mintaqaning Yevropa aholisi ham "progressiv blok" uchun Ikkinchi Davlat Dumasiga saylovlarda ko‘pchilik ovoz bergan saylov huquqini yo‘qotdi. Turkistondan saylangan deputatlarning hammasi ham muxolif qarashlarga amal qilmas edi.

Uchinchi Dumada bu mutlaqo mumkin emas edi. «Shunday qilib, - deyiladi manbada, - agar Birinchi va Ikkinchi Dumalarda bizning masalalarimiz faqat umumiy ishlar uchun erisha olinmaganligi sababli muhokama qilinmagan bo‘lsa, uchinchi Dumada, vaqt bo‘la turib ham, bizlarga etibor bermadilar. Chunki bizning masalani ko‘taradigan hech kim bo‘lmadi va har qanday holatda uni himoya qilish imkoniyati xam bo‘lmadi. Mening chuqur ishonchim komilki, bizning muammoyimiz, barcha dolzarb masalalar singari, faqat millatlarga mutanosib saylovlar asosida chaqiriladigan Duma tomonidan hal qilinishi mumkin”[7].

**Tadqiqot metodologiyasi.** "Kaspiy"dagi nashr 1908-yildagi "Tashkentskiy kurer"da chop etilgan "Turkiston o‘lkasi va 3-iyun qonuni" nomli maqola bilan hamohang edi: "Uchinchi Duma, bu holatda (deputatlar yo‘qligi mintaqamizning unga begona bo‘lgan ehtiyojlarini tahlil qila oladi va shuning uchun Dumada unga oid barcha savollar o‘limli sukunat bilan qabul qilinadi, gapiradigan hech kim yo‘q, hamma narsa bitta ovoz berish bilan cheklanadi va bunday qonun loyihalari qabul qilingan, undan biz, ehtimol, yaxshi bo‘lmasmiz". Shunday qilib, Turkiston aholisining turmush tarzi qonunchilik tartibida rivojlanishi uchun mo‘ljallanmagan vaziyat yuzaga keladi. Bu holat g‘ayritabiiy bo‘lib, Turkiston taraqqiyotiga to‘sqinlik qilar edi[8].

Deputat M. Shaxtaxtinskiyning fikricha: "Chet yelliklarga Konstitutsiya ruslardan ham ko‘proq kerak. Konstitutsiya bo‘lmaganida, ruslar o‘zlarining siyosiy huquqlari va fuqarolik yerkinliklaridan mahrum bo‘lishlari mumkin yedi, lekin ularning milliyligi va daxlsizligi, dinlari heterodoks ta’sirga ta’sir qilmasdan qolar edi. Ularning dini va millati davlatda hukmronlik qilishi zarur"- deb ta’kidlagan edi[9].

E. Fedorovning so‘zlariga ko‘ra, graf K. K. Palenga yuborilgan iltimosnoma saqlanib qolgan. Bu hech kim tomonidan imzolanmagan va qoralama xujjat edi. Ijtimoiy-madaniy talablardan tashqari, uning mualliflari "3 iyun qonunini" bekor qilishni so‘rashgan edi[10].

1912-yil 3-iyun kuni, yangi saylov qonunining besh yilligi munosabati bilan mamlakatda hukumatga qarshi uyushgan namoyishlar o‘tkazilishi kutilayotgan edi. Ushbu tashabbusni qo‘llab-quvvatlamoqchi bo‘lganlar Turkiston-da ham bo‘lishi ajablanarli emas. Sirdaryo viloyatining harbiy gubernatori general-leytenant A.G. Galkin xam Toshkentda ommaviy tartibsizliklar bulib utishini kutayotgan edi. Uning yozishicha, unda mavjud bo‘lgan ma’lumotlarga ko‘ra Sirdaryo viloyatida hukumatga qarshi kayfiyatdagi jamoalarning mavjudligi to‘g‘risida ko‘rsatma bera olmasdi, ammo shunga qaramay, u boshqarib kelayotgan xududda ish namoyishlar bulib o‘tmasligiga kafolat berishning iloji yo‘qligini ta’kidlagan edi[11].

Bunday tayyorgarlikka nima sabab bo‘lishi mumkin edi? Ehtimol, va bu yig‘ilishlarning bayonnomalari bilan tasdiqlangan, deputatlar ilgari huquqsiz hududlardan milliy siyosiy elita paydo bo‘lishi bilan siyosiy muvozanat buzilishidan qo‘rqishgan edi, chunki davlat Dumasida partiya kuchlari nisbati o‘zgarishi xavfi mavjud edi[12]. Umuman olganda, III Davlat dumasidagi "maxalliy xalqlaridan chiqgan deputatlar" va shu jumladan musulmonlarning taktikasini quyidagicha tavsiflash mumkin edi. Ularning umumiy shiori 3-iyungacha bo‘lgan saylovlarda barcha Rossiya fuqarolarining teng huquqliligiga, millati, dini va yashash hududini farq qilmasdan qaytish edi.

IV Davlat dumasi Turkiston vakolatxonasini qaytarish masalasiga ko‘proq e’tibor qaratadi. Bizning fikrimizcha, vaziyatga jiddiy ta’sir ko‘rsatgan omillar quyidagilardan iborat edi:

birinchi omil: Rossiyaning o‘zida ham, qo‘shni musulmon davlatlarda ham musulmonlar harakatining o‘sishi. Rossiya o‘z hududida yashagan va ularning konsolidatsiyasiga har tomonlama qarshi bo‘lgan millionlab musulmonlar orasida panislamistik va panturkistik g‘oyalar ta’sirining kuchayishi-dan qo‘rqardi.

ikkinchi omil: Dumaning mintaqaning iqtisodiy salohiyatini, uning eng boy tabiiy va inson resurslarini ekspluatatsiya qilish masalalarida umumiy qobiliyatsizligi edi.

1913-yil 28-yanvarda A.F. Kerenskiy va A.V. Chxeidze boshchiligidagi mehnat guruhining 24 a’zosi umumiy saylov huquqi bo‘yicha yangi Qonunchilik taklifini kiritadilar va 66 kishidan iborat maxsus komissiyani saylashni talab qiladilar. Trudoviklar tomonidan berilgan bayonotda, xususan:"...3 iyundagi qonun saylovlarga nisbatan qo‘pol ma’muriy bosim uchun eshiklarni keng ochib berdi... Saylov huquqi... qabul qilingan shaxs emas, fuqaro emas, balki mulk... Aholi uzoq vaqtdan beri teng umumiy saylov huquqiga asoslangan haqiqiy vakillik tizimiga ehtiyoj borligini anglagan va buning talabi tobora qat’iylashtiril-moqda"[13]. Taklif rad etilgan edi.

**Tahlil va natijalar.** 1913-yilning 27- fevralida to‘rtinchi chaqiriq Dumasining birinchi sessiyasining 24-yig‘ilishida davlat dumasining 32 a’zosi nomidan "saylov to‘g‘risidagi nizomni o‘zgartirish to‘g‘risida" bayonot bilan kadetlar fraksiyasi rahbari P.N. Milyukov so‘zga chiqadi. Aytish kerakki, Duma yig‘ilishining boshida kiritilgan qonun loyihalarini tartibga solish tartibi ularning Davlat dumasi uchun psixologik maqbullik tartibiga mos kelar edi. Shu bilan birga ushbu qatordagi saylov qonunchiligini o‘zgartirish to‘g‘risidagi qonun loyihasi oxirgi bo‘ldi.

Kadetlar ilgari xuddi shunday Qonunchilik tashabbusi bilan chiqishgan edi. Keyin ko‘pchilik deputatlar bu radikal xolatligi va mamlakat hali yetarli parlament tajribasiga ega emasligiga e’tiroz bildirishdi. II Duma 102 kun davomida agrar masala va hukumat bilan qarama-qarshilik bilan band edi.

III Davlat Dumasida bunday qonun loyihasini ko‘rib chiqish bo‘yicha xarakatlar amalga oshirilmay qoladi, chunki uning o‘zi uning mahsuli edi. Shu sababli, IV Davlat Dumasida ko‘rib chiqish uchun umumiy saylov huquqi to‘g‘risidagi qonun loyihasini kiritishda P.N. Milyukov saylov qonunchiligini o‘zgartirish bo‘yicha kiruvchi takliflar bilan ishlash uchun maxsus komissiya tuzishni taklif qiladi. "Umumiy saylov huquqi, - ta’kidlar edi Milyukov, - davlat hayotining rivojlanishining muqarrar natijasidir va uni ertami-kechmi berish yaxshiroqdir" [14].

Xatto A.G. Buligin nima uchun umumiy saylov huquqiga qarshi ekanligini tushuntirish uchun quyidagi prinsipni ilgari surgan edi: ma’lum bo‘lgan moddiy xavfsizlik - bu shaxsiy qarashlarning mustaqilligi va mustahkamligi uchun shart bulgan omildir. Aks xolda, Dumada "beg‘amlik" vujudga keladi. P.N. Milyukov, aksincha,o‘z xalqidan qo‘rqmaslikni, bu tajribadan barcha xalqlar o‘tganligini ta’kidlar edi. Aks xolda, uning ta’rifi buyicha, "zo‘ravon kurash shakllari" sahnaga chiqadi [15].

Masalani muhokama qilish 8-martda (27-sessiya) qayta tiklanadi va 1913-yil 13-martda (28-sessiya) yakunlanadi. Deputatlarning qonun loyihasiga munosabati ularning siyosiy qarashlari bilan belgilanar edi. Agar asosiy pozitsiyalarga ye’tibor beradigan bo‘lsak, Oktabristlar va millatchilar bunga qat’iyan "qarshi" edilar. Shunday qilib, deputat N.E. Markov shunday degan edi:"...Kadetlar Dumaning tarqatib yuborilishini talab qilmoqdalar...

Rossiyada umumiy saylov huquqi faqat yahudiy sheriklari tomonidan taklif qilinishi mumkin. Dehqonlar va trudoviklar umuman islohotlarni qo'llab-quvvatlar edilar, ammo kadetlar qonun loyihasiga qarshi edilar.

1913-yil 13-martda bo'lib o'tgan yakuniy yig'inda musulmonlar fraksiyasi o'z pozitsiyasini bildiradi. Deputat K.B. Tevkelevning aytishicha, Rossiya musulmonlari eng huquqsiz holatda edi. Deyarli 20 million kishidan iborat jamoat - Dumada arzimas vakillikga ega edi . Shuni hisobga olib, fraksiya "Saylov to'g'risidagi nizomga qonunchilikka o'zgartirish kiritish maqsadga muvofiqligi" uchun ovoz beradi[16].

Ovoz berishdagi bunday natijaning sababi nimada edi? Bu vaqtga kelib Rossiyada hali aniq va muvofiqlashtirilgan saylov tizimi mavjud emas edi. Namuna bor edi, lekin unga ko'ra, deputatlardan biri to'g'ri ta'kidlaganidek, "ma'muriy o'zboshimchalik naqshlarini belgilash" mumkin edi xolos. Uch oy o'tgach, yuqorida tavsiflangan voqealardan so'ng, Duma "Sirdaryo, Farg'ona va Samarqand viloyatlarining 1913-1915- yillarga mo'ljallangan zemstvo vazifalari smetalari to'g'risida" qonun loyihasini qabul qiladi. Ma'lum bo'lishicha, hal qilinmagan muammolar 1908-yildagi kabi saqlanib qolgan edi. Lekin deputatlarning qat'iyatliligi hayratga solar edi, ular qilgan xatolarini qayta va qayta takrorlashni davom ettirishardi. Masalan yillik smeta 2 786 609 rubl miqdorida belgilangan edi. Moliyaviy komissiya vakilining nutqiga ko'ra Turkiston general-gubernatorligining hududlarida zemstvo xo'jaligini yuritishning mavjud tartibi mahalliy ehtiyojlarni ta'minlash nuqtai nazaridan mutlaqo qoniqarsiz ekanligini ko'rsatar edi. Buning natijasida mahalliy aholi vakillari ishtirokida shoshilinch ravishda ko'rsatilgan viloyatlarda o'zini o'zi boshqarish tizimini tashkil etish belgilangan edi.

Davlat Dumasida ushbu hududlardan vakillarning yo'qligi Qonunchilik institutlarini mintaqaning ehtiyojlarini baholashda mahalliy hayotning o'ziga xos xususiyatlari tafsilotlariga kirish imkoniyatidan mahrum qilishi, ularni yo'q qilishda viloyat aholisiga Davlat Dumasida vakillik huquqini berish juda zarurligi xam ta'kidlab utildi[17].

Qonun loyihasi uchta munozarada muxokama va tuzatishlarsiz qabul qilinadi va 1913-yil 25-iyunda Duma o'zining yakuniy nashrini tasdiqladi[18]. U o'zi bergan tavsiyalarni tasdiqladi va unutdi. U, bir tomondan, joylardagi ishlar to'g'risida ob'ektiv ma'lumot bera olmaydigan beparvo va qobiliyatsiz amaldorlarni aybladi, boshqa tomondan, o'z qarorlarini bajarmagan edi, lekin ularni o'lka ma'muriyatdan majburiy ijro etishni talab qilar edi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa o'rnida takidlash kerakki Duma faoliyati undagi amalga oshirilgan saylovlar, saylovlardagi ko'rib chiqilgan masalalar o'lka maxalliy aholisi uchun ko'plab muammolarni keltirib chiqardi. Husnsan yuqoridagi keltirilgan manbalarga to'xtaladigan bo'lsak Turkiston maxalliy aholisiga nisbatan hali qonuniylikka tayyor emas degan jumlalarni ham ko'rishimiz mumkin, agar tayyor bo'lgan holatda ham biz ularda faqatgina agrar masalalarni ko'rib chiqamiz deb etirof etilganligini guvoxi bo'lamiz. Mavjud 1 2 3 duma yig'ilishlarida hal qilinishi kerak bo'lgan ko'plab masalalar qolib ketganligini va bundan tashqari duma yig'ilishlarida berilgan takliflarni inobatga olinmaganligini ko'rishimiz mumkin.

## ADABIYOTLAR


1. Калинычев Ф.И. Государственная дума в России (Сборник документов и материалов). -М., 1957. -С.272.
2. Бурмистрова Т.Ю. Национальный вопрос в программах и тактике политических партий в России. / Бурмистрова Т.Ю. Гусакова В.С. М., 1976. -С. 47.
3. Агзамходжаев С.С. Туркистон мухторияти... -С. 64-66.
4. Алимова Д.А. Джадиды в Средней Азии. Пути обновления, реформы, борьба за независимость. Ташкент, 2000. -С. 18.
5. Зубаров А. Вторая Государственная дума (впечатления). СПб., 1908. -С. 15.
6. Туркестанский курьер. 1908. 2 июня.
7. Туркестанский сборник. Ташкент, 1907. Т. 437. -С.165-166.
8. Туркестанский сборник. Ташкент, 1907. Т. 437. -С. 131.
9. Туркестанский сборник. Ташкент, 1907. Т. 428. -С. 115-116.
10. Федоров Е. Указ. соч. -С. 74-76.
11. ЎзМА, И-462-жамғарма.1-рўйхат.414-йиғма жилд, 176-варақ.
12. Государственная дума. Стенографический отчет. Созыв третий. Сессия I. Часть III. СПб., 1908. -С. 3668-3670.
13. Приложение к стенографическим отчетам Государственной думы. Созыв четвертый. Сессия I. 1912-1913. Вып. I. (№ 1 - 150). СПб., 1913. № 124 (IV)
14. Государственная дума. Стенографические отчеты. Созыв четвертый. Сессия I. Часть I. СПб., 1913. -С. 1801.
15. Государственная дума. Стенографические отчеты. Созыв четвертый. Сессия I. Часть I. СПб., 1913. -С. 1821.
16. Государственная дума. Стенографические отчеты. Созыв четвертый. Сессия I. Часть I. СПб., 1913. -С. 2104-2222.
17. Государственная дума. Стенографические отчеты. Созыв четвертый. Сессия I. Часть I. СПб., 1913. -С.2641.
18. Государственная дума. Стенографические отчеты. Созыв четвертый. Сессия I. Часть I. СПб., 1913. -С. 2658.

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/1]**
**ISSN 2181-7324**

**TARIX**
https://science.nuu.uz/
Social sciences

**UDK:347.72032(091)**

***Baxodir JO‘RAEV,***
*O‘zbekiston Milliy universiteti*
*Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi katta o‘qituvchisi*
*E-mail: saidikromxoja@mail.ru*

*T.f.d., professor A.A.Yermetov taqrizi asosida*

## SHIRKATLAR TARIXIGA NAZAR

Annotatsiya

Muallif mazkur maqolada qadimgi Rim davlatda shirkatlarni vujudga kelish tarixi va ularni shakllanishini nazariy va amaliy jixatdan ilmiy taxlil etgan. Shuningdek, huquqshunos olimlarning fikr va mulohazalarini taxlil etgan holda ko‘rib chiqilgan huquqiy konstruksiyalar xozirgi kunda shirkat to‘g‘risidagi zamonaviy tushunchalarga juda yaqin ekanligini asoslab bergan.

**Kalit so‘zlar:** Digestlar, Gay institutsiyasi, shirkat, sheriklar, bitim, korporatsiya, tadbirkorlik, umumiy manfaat, a’zo, ulush, foyda, mulkni taqsimlash, zarar.

## ВЗГДЯДЫ НА ИСТОРИЮ РАЗВИТИЙ КОМПАНИЙ

Аннотация

В данной стате автор провел научный анализ истории возникновения компаний в древнеримском государстве и их становления с теоретической и практической точек зрения. А также, анализируя мнения и суждения ученых-правоведов, он обосновал, что рассматриваемые юридические конструксии очень близки к современным консепсиям общества.

**Ключевые слова:** Дигэсты, институтции Гая, товарищество, товарищи, сделка, корпоратция, предпринимательство, общий интерес, участник, пай, прибыл, раздел имущества, убыток.

## LOOK AT THE HISTORY OF COMPANIES

Annotation

In this article, the author conducted a scientific analysis of the history of the emergence of companies in the ancient Roman state and their formation from a theoretical and practical point of view. And also, analyzing the opinions and judgments of legal scholars, he substantiated that the legal constructions under consideration are very close to modern concepts of society.

**Key words:** Digests, Guy's institutions, partnership, comrades, transaction, corporation, entrepreneurship, common interest, participant, share, profit, division of property, loss.

Tarix sahifalarida ochilgan va ochilmagan sir-sinoatlar, o‘zgacha sharhu talqinlar juda ko‘p. Ammo, ulug‘ bir donishmand uqdirganidek, hech narsa, voqea vaqt o‘tishi bilan, mazmuni qasddan soxtalashtirilsa ham, asl mohiyatini yo‘qotmaydi. Shuning uchun biz mazkur maqolada shirkat-larni tarixiga nazar solamiz va ularni tashkil etish jarayonlarini taxlil etishga xarakat qilamiz.

Ma’lumki, oldi-sotdi shartnomalariga bag‘ishlangan Gay institutsiyalarida shirkatlar masalasi (societas) alohida ajratib ko‘rsatilgan. Unda eng avvalo ushbu tuzilmani aniqlash imkonini beruvchi jihatlarga e’tibor qaratilgan. Ya’ni, shirkat o‘zining bor mulki bilan, yoki biron-bir bitimni amalga oshirish, masalan qullarni sotib olish yoki sotish uchun muomalaga kirishish deb ta’riflangan. I.A.Pokrovskiy, societas haqida fikr yuritib, "uning tarixiy rivojlanishi, shub-hasiz, consortium deya atalgan tuzilmadan boshlangan, ya’ni aka-ukalar o‘rtasida otaning o‘limidan so‘ng ajralib ketmasdan, xo‘jalikni birgalikda yuritish to‘g‘risidagi bitimdir deb ta’kidlagan.

Shirkatlarning kelib chiqishi keyingi davr huquqida shu tarzda aks etganki, umuman socii o‘rtasidagi munosabatlar fraternitas xarakteriga ega; xususan, socii bir-birining oldida faqat o‘z ishlariga nisbatan bildiradigan e’tibor va g‘amxo‘rlik uchun javob beradi, ya’ni culpa in concrete, diligentia quam suis rebus ashidere solet uchun (shu tarzda, socies umuman, e’tiborsiz, o‘zining oddiy e’tiborsizligi uchun javob bermaydi, holbuki o‘zgalar oldida ana shu sovuqqonligi uchun javob berishi zarur).". Tomonlar manfaatlarining umumiyligiga asoslangan shirkat (socius) shartnomalar ius civile da o‘z o‘rnini egallashidan avval huquqiy himoyaga ega bo‘lgan. Shartnoma huquqining ana shu davrini ko‘zda tutgan holda, L.G.Gusakov shunday ta’kidlaydi: "Qonunda ularga mos bo‘lgan kontrakt da’volari bo‘lmasa-da, sudya himoyalashdan bosh tortmaydi - ayni paytda, bir shaxs tomonidan ikkinchisiga topshirilgan mulk huquqi shu jumladan, hamda o‘ziga tegishli bo‘lmagan mulkni o‘zlashtiruvchi kontragentni oddiy o‘g‘rini jazolangandek jazolaydi".

Keyinchalik Sitseron, o‘zining ikki do‘stini nizosi bo‘yicha sudda ishtirok etar ekan, o‘z da’vosini javobgarning xatti - harakatida delictum, furtum, fraus (deliktlar, o‘g‘rilik, aldov) mavjudligi bilan asoslaydi. Ya’ni, action pro socio (shirkatdan berilgan da’vo) mutlaqo delikt mavjudligini ko‘zda tutmasligini anglamaydigandek.

Rim huquqiga ko‘ra societas omnium bonorumning turlicha modellaridan foydalanish imkoniyati ko‘zda tutilgan, unga ko‘ra ishtirokchilardan har birining mulki shirkatning umumiy mulki tarkibiga kiritilishi belgilangan edi. Societas-ning ushbu turi mohiyatiga ko‘ra asosan agrar, va ayni paytda agrar va oilaviy munosabatlarga mo‘ljallangan. Tegishli ravishda, bu borada ham merosxo‘rlar haqida, ya’ni huquqiy munosabatlar bilan zich bog‘liq bo‘lgan shaxslar haqida so‘z bormoqda. Shundan so‘ng asta-sekin, asosan tijorat munosabatlarga e’tibor qaratgan holda societas unius negotiationis (unius rei) joriy etila boshlandi, ya’ni tomonlar shartnomaga ko‘ra sheriklardan har birining ishtiroki ulushini ko‘zda tutgan va ular ushbu mulkni umumiy mulkka aylantirish majburiyatini olgan.

Asta-sekin Rimning huquqiy hayotida shirkat nafaqat xususiy huquq sohasida (qullar savdosi va boshqa tadbirkorlik maqsadlari), balki ommaviy huquq sohasida ham (societas publicanorum) qo‘llanila boshlandi. Bunda asosan, societas vectigalium haqida so‘z boradi, bu “davlat daromadlarini ijaraga olishni” anglatadi. Societas asta-sekin oddiy shirkat shartnomasiga yaqinlasha boshladi.

Yu.Baron Qadimgi Rimdagi societas ni korporatsiyalar bilan qiyoslar ekan, xususan, "shirkat tashkiliy tuzilmaga ega emasligi, shu sababli yuridik bitimlar faqat barcha socii yoki barcha a’zolar tomonidan tayinlangan ishonchli vakillari bilan birga qo‘llanishi mumkinligi», shuningdek, «a’zolar umumiy mulkda o‘z ulushiga ega, shirkat nomidan tuzilgan bitimlar bo‘yicha o‘zlari ham qarzdor, ham kreditor bo‘lishlari mumkinligini» bejiz ta’kidlamagan. Muallifning boshqa tadqiqotida esa: «a’zolarning uchinchi shaxslarga munosabatiga shirkat shartnomasi hech qanday ta’sir ko‘rsatmaydi: u go‘yoki hech qanday shirkat yo‘qdek muhokama qilinadi». Shundan so‘ng umumiy xulosa o‘rnida ta’kidlanadiki: «Societas sohasida shirkat talablari va qarzlariga o‘rin yo‘q, balki alohida a’zolarning talablari va qarzlari mavjud. Ko‘rsatilgan vaziyatlarni e’tiborga olgan holda G.F.Shershenevich shunday deb yozadi: «Erkin mehnat munosabatlarining yo‘qligi, raqobatning etishmasligi Rim huquqida shirkat munosabatlarining rivojlanishiga yordam bermadi».

Endilikda, Rim huquqini ko‘zda tutgan holda, D.V.Dojdev shunga e’tibor qaratdiki, "shirkatning tuzilishi turli-tuman munosabatlarni, jumladan, ishga yollashni rasmiylashtirish imkonini beradi. Aytaylik, masalan, bittasi sarmoya kiritgani holda ko‘plab boshqa shirkatlar o‘zining ishchi kuchini beradi, yoki aksincha, bittasi bunga mehnatini sarflaydi (masalan, o‘qituvchilik mehnatini), qolganlari esa pul kiritadi, lekin bunda tadbirdan olinadigan foyda bir xil bo‘lmasligi mumkin».

Huquqshunos olim V.R.Topildievning fikricha, shirkat mohiyatan quyidagi mezonlarga asoslangan: sheriklar ko‘zlagan jamiyatga naf keltiruvchi, qonun doirasidagi aniq maqsad, umumiy manfaatni ifodalovchi va maqsadga erishishga qaratilgan doimiy kelishuvlar, mulkiy hamjihatlik, foyda va ziyon ko‘rishda sheriklarning teng ishtiroki va xokazolar.

Sheriklar barcha mulkni o‘rtada taqsimlashni belgilaganlar, qo‘shgan ulushlarini va keyinchalik qo‘lga kiritgan mulklarini ham o‘rtada teng taqsimlanganlar. Sheriklardan har qaysisi ulush sifatida qo‘shgan mulkiga o‘zining yakka holdagi egalik huquqini saqlagan va o‘z mulkini shirkat ko‘zlagan maqsadga erishish uchun umumiy foydalanish uchun qo‘shgan. Bunday holatlarda sheriklarning shirkatdan chiqishida qo‘shgan ulushi qaytarilgan. qo‘shilgan ulushning bir xil miqdorda bo‘lishi zarur hisoblanmagan[1].

Sheriklarning har qaysisi pul, mulk yoki o‘zining kasbiy bilimini ulush sifatida qo‘shishi mumkin bo‘lgan. Umumiy qoidaga ko‘ra qo‘lga kiritilgan foyda sheriklarning har qaysisiga teng taqsimlangan, etkazilgan ziyon uchun ham sheriklarning har qaysisi teng javobgar hisoblangan. Lekin, taqsimotning boshqacharoq shakllari ham mavjud bo‘lgan. Unda sheriklardan biri tushgan foydadan ko‘proq ulush olib, ko‘rilgan ziyonga kamroq hissa qo‘shgan sharoitlarda ham shartnomalar imzolangan. Biroq, sheriklardan biriga faqat ziyon keltirish, boshqasiga esa foyda keltirish qat’iyan ta’qiqlangan[2].

Shirkatlarning keng tarqalishi asta-sekin tadbirkorlik sohasi deya atalishi mumkin bo‘lgan sohani (sanoat va savdo) qamrab oldi va bu respublikaning va imperatorlik davrining so‘nggi yillarida kuzatiladi. Bundan farqli ravishda Qadimgi Rimga ko‘proq darajada societas omnium bonorum modellari (ishtirokchilarning butun mulkini qamrab oluvchi) xos bo‘lgan.

Tadbirkorlik (savdo) munosabatlari rivojlanishi barobarida Rim huquqida faqat bitta huquqiy bo‘lmagan sub’ektning mavjudligi etarli bo‘lmay qoldi.

Bunday model avvalo kreditorlar manfaatlariga va natijada umuman fuqarolik muomilasiga zid bo‘lib, uning barqarorligini etarli darajada ta’minlay olmagan. Bu paytga kelib asta-sekin yuridik shaxs tushunchasi ham rivoj topdi. Aynan u shirkatlarning ayrim turlari uchun qo‘llanila boshlandi. Oqibatda xozirgi kunda ba’zi bir mualliflar shunday xulosaga keldiki, unga ko‘ra Rim huquqida societas atamasi ikki xil ma’noga ega bo‘ldi: u yuridik shaxslarni (universitas personarum) va ayni paytda o‘z a’zolari orasida umumiy mulkchilik munosabatlarini belgilovchi tasodifiy va shartnomaviy birlashmalarni anglatadi.

I.A.Pokrovskiy Qadimgi Rimda yuridik shaxs tuzilmasi rivojlanishini kuzatib shunday xulosaga keladi: "Rim huquqida yuridik shaxslar o‘zining to‘liq rivojlanish darajasiga etmagan, holbuki Rim huquqida yuridik shaxs huquqigina yaratilmagan, balki uning asosiy amaliy ifodasi belgilab berilgan: jismoniy shaxsga bog‘liq bo‘lmagan huquqqa layoqatlilik tushunchalari, sun’iy layoqatlilik usullari va hatto yuridik shaxslarning asosiy turlari (korporatsiya va muassasalar) ishlab chiqilgan. Yangi turga nihoyatda nozik yuridik vosita berilgan, uning yordamida turli-tuman ijtimoiy tuzilmalar fuqarolik jamiyatining normal hayotiga kiritilishi va yangi dunyo undan keng foydalanishi mumkin»[3]. Rim huquqida yuridik shaxs mavjudligini tan olish borasidagi shunga o‘xshash fikrlar K.N.Annenkov tomonidan bildirilgan.

N.S. Suvorovning nuqtai nazari yuqoridagilardan farq qilgan. Uning fikricha, Rim huquqi, yuridik shaxslar borligini tan olishdan bosh tortib, ayni paytda muomalada jismoniy shaxslar bilan bir qatorda amal qiluvchi fuqarolik huquqining alohida turi mavjud. Ya’ni, bu o‘rinda "personae vice fungi" yoki "privatorum loco habere" deb ataluvchilar ko‘zda tutilgan[4]. Shuni qayd etish kerakki, ayrim mualliflar Rim huquqida yuridik shaxslar tan olinishiga yo‘l qo‘ygani holda, buni shirkatga nisbatan tatbiq etishdan bosh tortgan[5]. I.B.Noviskiy ham shu nuqtai nazarga qo‘shiladi, uning fikricha "Rimlik yuristlar ba’zan shirkat mulki haqida so‘z yuritsa-da, bunda hali barcha a’zolar mulkidan yirikroq narsa ko‘zda tutilgani yo‘q[6], G.Dernburg ham shunday xulosaga kelgan[7]. G.F. Shershenevich ham «Rim huquqida faqat shirkat a’zolari o‘rtasidagi ichki munosabatlar rivojlanishga ulgurgan degan fikrni ilgari surgan[8]. Rim huquqida shirkatlarning yuridik shaxs sifatida tan olmaslikni K.P. Pobedonossev[9] va A.O. Gordon[10] ta’kidlashgan.

S.N.Muromsev, respublikaning so‘nggi asrlarini nazarda tutgan holda, shirkatlarga shunday ta’rif beradi: «umumiy xarid qilish va egalik qilish maqsadida alohida shaxslarning birlashuvi. Shirkatda ko‘zda tutilgan egalik qilishning umumiyligi biron bir yuridik ta’rifiga ega bo‘lmadi, Shirkat a’zolarining o‘zaro munosabatlari shartnomaviy huquq asoslari bilan belgilangan: huquqda shirkat umumiy yaxlitlik deb tushunilmagan, balki shirkat a’zolari bilan alohida munosabatlar ko‘zda tutilgan. Yuridik jihatdan shirkat shaxsiy mulkchilikka oid individual huquq va majburiyatlar tushunilgan, va nazarimizda, yuridik shirkat rivojlana olmagan, hozircha u faqat shaxsiy manfaatlar tufayli vujudga kelgan mulkiy munosabat shakllari bilan chegaralangan. Boshqa turdagi qiziqishlar yurisprudensiyani fuqarolik huquqiga yangi tushuncha kiritishga da’vat etgan, unga ko‘ra umumiy egalik fuqarolik shakli sifatida ochiq tan olingan. Bu soxta yoki yuridik shaxs tushunchasi bo‘lgan»[11]. Shunday holatlar bo‘lganki, sub’ekt huquqiga ega bo‘lmagan tuzilmalar sifatida tashkil etilgan shirkatlar yuridik shaxs bo‘lgan shirkatlarga aylangan. Bunday aylanish V.Elyashevich tomonidan ijarachilar shirkati misolida ko‘rsatib berilgan (societas publicanorum).

Bunda e’tibor shunga qaratilganki "asboblar, xizmatchilar, qullar va h.z. shakldagi yirik sarmoyaga egalik zarurati ushbu shirkatlarning u yoki bu darajada ko‘p sonli tarkibini nazarda tutsa, boshqa tomondan, ularning davlat xo‘jaligi bilan aloqasi ularning huquqiy layoqatli bo‘lishlari uchun etarli bo‘lgan causani yaratib bergan. Ijarachilarni birlashtiruvchi tuzilmalarning intilishlari ularning muomalaga kirishlarini osonlashtirgan va soddalashtirgani holda prinsipatning birinchi yuz yilligida amalga oshirilgan»[12].

Rim huquqida shirkatning huquqiy maqomini belgilash bilan bog‘liq masalalar asosan uch turga bo‘lingan.

Birinchisi, bir a’zo boshqalariga nisbatan ko‘proq foyda oladigan yoki boshqalarga ko‘ra kamroq mablag‘ sarflaydigan shirkat shartnomasini tuzish mumkinmi? Ushbu savolga berilgan turlicha javoblar orasidan, shirkatning ayrim ishtirokchilar mehnati va faoliyati alohida qimmatga ega deb baholangan holda shunday tartib joriy etilishi mumkin, degan javob keng tarqaldi. Ulushlar nisbatiga oid ikkinchi savolga javob esa - erishilgan bitimda boshqa shart ko‘zda tutilmagan bo‘lsa, ishtirokchilar ulushining teng bo‘lishini tan olishni anglatadi. Shartnomaning mohiyatiga tegishli bo‘lgan uchinchi savolga javob shartnomaning shaxsiy xarakteri bilan izchil bog‘liq bo‘lgan. Bundan nuqtai nazarga ko‘ra, shirkatdan chiqish, ayni paytda shirkat a’zosining vafot etishi shirkatning tugatilishiga olib kelishini ham anglatadi. Bu bilan tegishli tuzilmaning xususiy xarakteri ham ta’kidlanadi.

Yustinian Institutsiyalarining uchinchi kitobida shirkatga XXV titul bag‘ishlangan. Unda ko‘zda tutilishicha, xususan, mulkni umumlashtirish maqsadida shirkatga kirish barobarida a’zo uchun ma’lum tadbirni amalga oshirish (qullarni, yog‘, sharob, non va sotib olish va sotish) ham rag‘bat bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ushbu manbada keltirilgan novellalar sirasiga alohida a’zo mulkini musodara qilish oqibatida shirkatning tugatilishi imkoniyatini (bu o‘rinda ma’lum a’zoning butun mulki musodara qilinishi ko‘zda tutilganni qayd etilgan), nafaqat aldov, balki umuman ayb uchun a’zolar o‘rtasida javobgarlik tamoyili qo‘llanilishini (mutlaq beparvolik va harakatsizlik, umum manfaatlarga o‘z manfaatlaridek qarash talabining buzilishini) kiritish mumkin.

Gay Institutsiyalari kabi, Digestlarda mulkni umumlashtirish uchun, shuningdek muayyan tadbir uchun shirkat tuzilishi farqlangan (davlat soliqlarini yig‘ish kabi maqsad alohida ajratib ko‘rsatilgan). Yustinian Digestlarida favqulodda hollarda ulushlarning tengsizligiga yo‘l qo‘yilgan (shaxs o‘z zimmasiga ko‘proq mehnat, ko‘nikma yoki ish sarflash majburiyatini o‘z zimmasiga olish sharti bilan). Shirkat a’zolari shartnomaning biron bir shartini bajarmagan taqdirda undan chiqish huquqi tan olingan. Ayni paytda a’zo tomonidan yo‘l qo‘yilgan ayrim buzilishlar tufayli shirkatdan chiqarish imkoniyati ham ko‘zda tutilgan. Shirkat faoliyat ko‘rsatgan paytda vujudga kelgan qarz majburiyatlarini umumiy mulk hisobidan qoplash zaruriyati maxsus qayd qilingan. Ushbu manbada Ulpian fikri keltirilgan bo‘lib, u «shirkat da’volariga» yo‘l qo‘yilishi mumkin, deb mulohaza yuritgan. Buning uchun shirkatning o‘zi mavjud bo‘lishi kerak. Mulk – umumiy mulk ekanligi etarli bo‘lmagan, chunki mulkning umumiyligi mutlaqo boshqa asoslar tufayli ham vujudga kelishi mumkin (legat, meros, hadya va h.z.).

Savdo korxonalarining tashkil topishi tashqi munosabatlarga nisbatan ham shirkatning umumiy birligini tan olishga olib keldi.

Bu esa shirkatga nisbatan bildirilgan da’volar uning a’zolari manzillariga emas, idorasi manziliga yo‘llanishida ham o‘z ifodasini topdi.

Manbalarda Rim huquqida ushbu institutning rivojlanishi haqida boshqa mulohazalar ham bildirilgan. Ushbu guruh mualliflari orasida P.E. Sokolovskiyni qayd etish mumkin. Uning tadqiqotida societas omnium bonorum tushunchasi tubdan qayta baholangan[13]. Chunki, muallifning fikricha, "u o‘z ichida kelgusida savdo muassasasi sifatida rivojlanishi mumkin bo‘lgan o‘ziga xos xususiyatlar mavjud emas». Bunda muallif shuni ta’kidlaydiki, "Sitseron, maishiy turmushni va shirkatning huquqiy holatini o‘rganib, o‘zini bu sohada mutaxassis deb bilgani holda biron marotaba societas omnium bonorum ni tilga olmaydi[14]. Bu o‘rinda so‘z bu kabi savdo munosabatlarining societas omnium bonorum mohiyati – har biriga tegishli bo‘lgan mulkning umumiyligi bilan bir biriga zidligi haqida bormoqda. P.E.Sokolovskiy societasni eng avvalo actio pro socie bilan bog‘lab (mulkka yo‘naltirilgan tavakkalchilik nazarda tutiladi), shirkat a’zolari o‘rtasida societas ni ulardan birining irodasiga ko‘ra tugallanishini nazarda tutadi. O‘z navbatida ushbu da’voning asosi bo‘lib barcha a’zolar foydasini ko‘zlab tuzilgan mustaqillik xizmat qilishi lozim. Bunday shartnoma a’zolar bor mulklarini umumiy xissaga qo‘shgunicha tuzilgan. Bunda actio pro socie dan tashqari societas omnium bonorum, shuningdek societas unius rei (umumiy manfaat uchun bitta narsani ajratish), societas publicanorum (ijarachilar shirkati – shartnomaga ko‘ra xazinadan o‘lpon olish huquqiga ega bo‘lganlar) ajratish zarur deb hisoblangan.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan huquqiy konstruksiyalar xozirgi kunda shirkat to‘g‘risidagi zamonaviy tushunchalarga juda yaqin ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Haqiqatdan ham shirkatlarning vujudga kelishi va ularning shakllanishini o‘rganish alohida o‘rin egallaydi. Huquqiy konstruksiya sifatida shirkatlarni tarixiy ildizlarini o‘rganish respublikamizda oddiy shirkat va yuridik shaxs sifatida to‘liq shirkat va kommandit shirkatlar faoliyatini yanada takomillashtirishga olib keladi.

**ADABIYOTLAR**


1. Topildiev V. R. (2013). Rim huquqi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 263.
2. Topildiev V. R. (2013). Rim huquqi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 263.
3. Pokrovskiy I.A. Istoriya rimskogo prava. Pb., 1918. S. 243.
4. Suvorov N.S. Rim huquqi bo‘yicha yuridik shaxslar to‘g‘risida. -M., 1900. S. 1 - 2.
5. Xvostov V.M. Sistema rimskogo prava. M, 1996. 112 - 114 b.
6. Noviskiy I.B. Rimskoe chastnoe pravo: Uchebnik. -M., 1948. 501-b.
7. Dernburg G. O‘sha asar. 415-b..
8. Shershenevich G.F. Kurs torgovogo prava. I tom. 287-b..
9. Pobedonossev K.P. Kurs grajdanskogo prava. Chast tretya: Dogovorы i obyazatelstva. SPb., 1890.501-b.
10. Gordon A.O. Predstavitelstvo v grajdanskom prave. SPb., 1879. 104-b.
11. Muromsev S.N. Grajdanskoe pravo Drevnego Rima. M., 2003. 595-596-b.
12. Yelyashevich V. Yuqoridagi asar. 407, 409 , 431 betlar.
13. Соколовский П.Е. Договор товарищества по римскому праву. -Киев, 1883.
14. Ўша асар., 10 бет.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/1] ISSN 2181-7324

TARIX
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 94.(5)

***Ravshan DJURAYEV,***
*O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti (PhD)*
*Ye-mail: rdjuraev@nuuz.edu*

*TDSHU professori S.Shadmanova taqrizi asosida*

## LIVESTOCK PRODUCTS IN FOREIGN TRADE OF UZBEKISTAN SSR

Annotation
Since ancient times, the population has been using livestock products in their daily and economic life. In particular, residents received meat, milk, skin, wool and other products from cattle. A large part of the products obtained and processed from livestock in the Uzbek SSR were exported to foreign countries. During this period, foreign trade of livestock products was carried out to European countries together with Iran, Afghanistan and China. This article analyzes the dynamics of livestock products exported from Uzbekistan to foreign countries in 1917-1941.
**Key words**: Livestock, raw materials, Iran, Afghanistan, China, intestine, wool.

## ПРОДУКЦИЯ ЖИВОТНОВОДСТВА ВО ВНЕШНЕЙ ТОРГОВЛЕ УЗБЕКИСТАНСКОЙ ССР

Аннотация
С древних времен население использует продукты животноводства в своей повседневной и хозяйственной жизни. В частности, жители получали мясо, молоко, кожу, шерсть и другие продукты от крупного рогатого скота. Большая часть продукции, полученной и переработанной от животноводства в Узбекской ССР, экспортировалась в зарубежные страны. В этот период внешняя торговля продуктами животноводства осуществлялась в страны Европы совместно с Ираном, Афганистаном и Китаем. В данной статье анализируется динамика вывоза продукции животноводства из Узбекистана в зарубежные страны в 1917-1941 гг.
**Ключевые слова:** Скот, сырье, Иран, Афганистан, Китай, кишечник, шерсть.

## O‘ZBEKISTON SSR TASHQI SAVDOSIDA CHORVA MAHSULOTLARI

Annotatsiya
Qadimdan aholi chorvachilik mahsulotlaridan kundalik va iqtisodiy hayotida foydalanib kelgan. Jumladan, aholi chorvadan go‘sht, sut, teri, jun va boshqa turdagi mahsulotlar olgan. O‘zbekiston SSRda chorvalardan olingan va qayta ishlangan mahsulotlarning katta qismi chet davlatlarga eksport qilingan. Mazkur davrda chorva mahsulotlarining tashqi savdosi Eron, Afg‘oniston va Xitoy bilan birgalikda Yevropa davlatlariga ham olib borilgan. Mazkur maqolada 1917-1941-yillarda O‘zbekiston hududidan chet davlatlarga eksport qilingan chorvachilik mahsulotlarining dinamikasini tahlil etilgan.
**Kalit so‘zlar:** Chorvachilik, xomashyo, Eron, Afg‘oniston, Xitoy, ichak, jun.

**Kirish.** Chorva ichak-chavog‘i, juni va terisi tashqi savdo munosabatlarida asosiy tovar sifatida qadrlangan. Mazkur xomashyolarga qo‘shni davlatlar bilan birgalikda Yevropa davlatlari ham xaridor hisoblangan. Xususan, yuqoridagi uch turdagi chorva mahsulotlarnig barchasi Rossiyaning markaziy shaharlariga eksport qilingan. Bundan tashqari, ushbu tovarlar Yevropa davlatlarida ham ancha xaridorgir bo‘lib, buning bir qancha sabablari mavjud edi. Masalan, O‘zbekiston hududidagi cho‘l va dashtlarda boqilgan hayvonlarning ichaklari yo‘g‘on bo‘lishi sababli ham o‘lkadan jo‘natilgan bu xomashyoning bozori chaqqon bo‘lgan. Jumladan, ichak-chavoqlarning asosiy qismi Germaniyaga eksport qilingan va u yerdan boshqa mamlakatlar bozorlariga yuborilgan. Chorva junlari sifatiga qarab Rossiyaga yoki boshqa xorijiy davlatlarga eksport qilingan. Cho‘l hududlarida boqilgan chorva mollarining junlari tashqi savdoda past sifatli hisoblangan. Mazkur turdagi junlarning asosiy qismi cho‘l va dashtdan iborat bo‘lgan Sirdaryo va Yettisuv viloyatlarida yetishtirilgan. Mazkur junlar asosan Rossiya shaharlariga sotish uchun yuborilgan. Tog‘li hududlarda boqilgan chorvalarning juni ingichka va qattiq bo‘lganligi uchun ular tashqi savdoda ancha qiymatli tovar hisoblangan. Mazkur turdagi jun mahsulotlarining asosiy qismi Yevropa davlatlari-ga eksport qilingan.

Tashqi savdo geografiyasida tovarlar nafaqat mahsulot turlari, balki o‘sha mahsulot qaysi chorvadan olinganligi ham ahamiyat kasb etgan. Xususan, qoramollardan olingan mahsulotlarning katta qismi Rossiyaga yuborilgan bo‘lsa, faqatgina 20 foiz qoramol mahsulotlari Germaniyaga eksport qilingan. Qo‘y va echkidan olingan mahsulotlar geografiyasi aksincha bo‘lib, bunda G‘arb davlatlarining ulushi ko‘proq bo‘lgan. Jumladan, qo‘y junlari va terilarining 50 foizi va echkidan olingan mahsulotlarning 70 foizi Germaniyaga sotish uchun yuborilgan. Bundan tashqari, qo‘y va echkidan olingan mahsulotlarning bir qismi AQShga eksport qilingan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Birinchi jahon urushi dunyodagi tashqi savdo munosabatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatdi va bu holat O‘zbekiston hududida ham sezildi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, chorva mahsulotlarining asosiy qismi Germaniyaga eksport qilingan va Birinchi jahon urushi boshlanishi natijasida Germaniya o‘z chegaralarini yopgan hamda oqibatda O‘zbekiston hududidan Yevropaga mahsulotlarni eksport qilish qiyinlashgan. Boshqa tomondan, Birinchi jahon urushida harbiy maqsadlarda otlarga bo‘lgan talab oshib ketgan va Rossiya imperiyasi bu talabni O‘rta Osiyodagi mavjud otlardan foydalanish orqali muammoga yechim topgan. Bu o‘z navbatida o‘lkadagi otlar miqdori kamayishiga va yilqichilikning rivojlanshiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan.

Mazkur jarayonlar oqibatida O‘zbekiston hududida ot savdosida muammolar yuzaga kela boshladi. Bundan tashqari, O‘rta Osiyodagi 1916-yil qo‘zg‘olonlari natijasida mahalliy chorvadorlar o‘z yilqilarini Xitoy va Afg‘oniston kabi qo‘shni davlatlarga olib chiqib ketgan. Shuningdek, 1917-1918-yilda mintaqada ocharchilik xavfi yuzaga kelishi natijasida ko‘plab qoramollar nobud bo‘lgan. Bunday voqealar mintaqadagi tashqi savdoda chorva va chorva mahsulotlariga bo‘lgan qarashlarga salbiy ta’sir ko‘rsatgan.

1920-yillarning dastlabki davrlarida ham chorvachilik sohasini qayta tiklash ishlari yetarli darajada olib borilmadi va bu holat chorva mahsulotlari savdosiga o'zining ta'sirini o'tkazdi. Ayniqsa qoramol va otlar miqdori boshqa davrlar bilan solishtirganda ancha kam bo'lgan. Arxiv manbalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, 1920-yilga kelib otlar soni 1917-yildagi miqdorning 43 foizini va qoramollar 61 foizni tashkil etgan. Agar chorva miqdorini 1915-yilga nisbatan taqqoslaydigan bo'lsak, chorva mollari soni uch baravarga tushib ketganligini ko'rishimiz mumkin. 1921-yilda ham o'lkadagi chorvachilik sohasiga bolsheviklar tomonidan e'tibor berilmadi. Bu holat esa chorvalarni ozuqa bilan ta'minlashda qiyinchiliklarga olib keldi. Natijada aksariyat chorvador xo'jaliklar chorvalarini o'tlatish va ozuqa bilan ta'minlay olmaganligi oqibatida chorvalar nobud bo'lishi davom etdi[1]. Bundan tashqari, bolsheviklar chegaralarni yopib qo'yganligi uchun o'lkaga chetdan xomashyo kelishi qiyinlashdi va bu o'z navbatida tashqi savdo munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolani yozishda tarixiy-qiyosiy metoddan foydalangan holda tahlil qilindi.

**Tahlil va natijalar.** 1918-yilga kelib Turkiston chegaralarida nazorat kuchayishi va kirib-chiqishda qiyinchiliklarning vujudga kelishi natijasida o'lkadagi xomashyo zahiralarining omborlarda to'planib qolishiga olib keldi. Keyinchalik mazkur tovarlar bolsheviklar sa'y-harakatlari natijasida davlat tasarrufiga o'tkazildi.

O'lkada sovet hokimiyati o'rnatilgandan so'ng chorva mahsulotlarini joylardan yig'ish va ularni qayta ishlash hamda tayyor mahsulotlarni chet davlatlarga sotish jarayonida katta o'zgarishlar yuz berdi. Bu o'zgarishlarning dastlabkisi mazkur bozorga yangi kuchlar kirib kelishi bilan bog'liq bo'lib, ular asosiy tashqi savdo aloqalarida asosiy vositachi bo'lib qoldi. Bu vositachilar hukumatga tegishli bo'lgan idora va tashkilotlar bo'lib, mazkur bozorlarda o'z monopoliyalarni o'rnatgan. Ular bu ishlarni o'zlarining ma'muriy huquqlaridan foydalangan holda amalga oshirgan va joylardan chorva mahsulotlarini yig'ib olgan. Boshqa tomondan, bu vositachilar davlat muassasalari bo'lganligi uchun chorva mahsulotlarini joylardan yig'ish jarayoni sekin kechgan va bu o'z navbatida tashqi savdo aloqalariga salbiy ta'sir ko'rsatgan omillardan biri bo'lgan. Bundan tashqari, chorva mahsulotlari savdosida qat'iy belgilangan narxlar mavjudligi, sovet hokimiyatining boshqaruv va ijro etuvchi apparat mexanizmi sust ishlaganligi bu yo'nalishdagi og'riqli muammolarga aylanib qoldi. Shuningdek, transport muammolari va turli harbiy harakatlar oqibatida chet davlatlar bilan savdo aloqalarini olib borish imkoniyati mavjud emas edi.

Chorva mahsulotlaridan bu davrda faqatgina jun ishlab chiqarish va uning savdosi bir muncha amalga oshirilgan bo'lib, buning bir qancha sabablari bor edi. Jumladan, bolsheviklarga tegishli fabrikalar junga bo'lgan ehtiyoji katta edi va hukumat bu talabni o'lkadagi chorvachilik sohasidan olishga harakat qildi. Xususan, O'zbekiston hududida 1919-yilda 110 ming pud, 1920 -yilda 180 ming pud va 1921-yilda 90 ming pud jun tayyorlangan[2].

1919-yildan Turkiston ASSR Afg'oniston va Eron bilan savdo aloqalarini rivojlantirishga harakat qildi. Xususan, Turkkomissiya Eron va Afg'oniston bilan savdo munosabatlari imkoniyatini o'rganish maqsadida chegaralarga komissiyalar yubordi. Natijada 1919-yilning oxirida Turkiston-Eron chegarasida joylashgan Poltoratsk, Marv va Taxtabazarda Eron va afg'on tovarlarini sotib olish mumkin bo'lgan savdo kontoralari tashkil etildi. 1919-yilning dekabr oyida Eron va Afg'oniston bilan savdoda xizmat qilish uchun Poltorsk va Dushaks bojxona muassasalari tashkil etildi hamda G'avdan, Xivaobod va Seraxs chegara o'tkazish punktlari yuzaga keldi[3].

Turkistonda tashqi savdo aloqalarini Tashqi Savdo bo'limi amalga oshirgan bo'lib, bu tashkilot savdo bilan shug'ullanuvchi tomonlarga litsenziya taqdim etgan hamda savdo aloqalarini nazorat qilib turgan. 1919-yil 12-dekabrda Tashqi Savdo bo'limi savdo bilan shug'ullanuvchi barcha muassasalar va yakka tartibdagi shaxslarga chegaralardagi savdo qilish holati va shartlari bo'yicha ma'lumotlar berish bo'yicha ko'rsatma beradi. Bo'lim mazkur harakatlarining dastlabki oylarida afg'on savdogarlaridan birinchi savdo takliflarini qabul qilishni boshlaydi. Jumladan, afg'on savdogarlari Taxtabazar va Kerki chegara punktlari orqali turli xildagi savdo mollarini Turkistonga yuborishni so'raydi. Tashqi Savdo bo'limi bu yo'nalishda mufaqqiyatli ishlaydi hamda dastlabki 3-4 oy ichida Afg'onistondan turli tovarlarni qabul qilib olish bo'yicha shartnomalar tuziladi. Masalan, 1920-yil 23- martda Tashqi Savdo bo'limi va Nurmuhammad ismli afg'on savdogari o'rtasida jami 506 800 rubl qiymatidagi 10 500 pud hajmli chorva terilari va 150 pud jun tovarlari savdosi bo'yicha shartnoma tuziladi. Mazkur davrda Turkiston-Afg'oniston chegarasida asosan O'rta Osiyoda joylashgan qizil armiya qismlarini kerakli mahsulotlar bilan ta'minlash maqsadida chorva, guruch, bug'doy va choy mahsulotlari sotib olingan. Afg'on savdogarlari asosan chorva va chorva mahsulotlarini Turkistondagi turli idish-tovoq, kerosin va metalldan yasalgan tovarlarga almashgan. Chunki Moskvada joylashgan Tashqi Savdo komissiriati Toshkentdagi Tashqi Savdo bo'limiga Eron va Afg'oniston bilan o'zaro savdo tovarlarini almashishga ruxsat bergan edi[4]. 1920-yilning ikkinchi yarmida Tashqi Savdo bo'limi Afg'oniston bilan jami 17 793 pud chorva go'shtlari va Eron bilan 34 701 pud go'sht mahsulotlarini sotib olish bo'yicha shartnoma tuzadi va mazkur go'shtlarni Turkistondagi muassasalarga o'z ehtiyoji uchun sotib olishni taklif qiladi[5]. Chunki mazkur tashkilotning vazifalaridan biri o'lkadagi zaruriyati bo'lgan tovarlarni olib kelish va muassasalarni mazkur mahsulotlar bilan ta'minlash hisoblangan. 1920- yillarda Turkiston ASSRda chorva miqdori kamaygan-ligi sababli chorva mahsulotlarini qo'shni hududlardan olib kelishga majbur bo'lingan. 1919-yilning oxiri va 1920-yilning o'rtalarida Turkistonga Eron va Afg'onistondan jami 5 105 bosh chorva, 193 831 pud go'sht, 3 084 dona teri, 107 633 dona qorako'l terisi va 2 904 pud jun mahsulotlari olib kelingan[6]. Mazkur yilda faqatgina Turkistonga tovarlar olib kelinib qolmasdan, balki ayrim tovarlarlarni qo'shni davlatlarga sotgan. Masalan, 1920-yilning birinchi yarim yilligida jami 117 622 bosh qorako'l qo'ylari eksport qilingan[7].

Xulosa va takliflar. 1920-yillarda Turkiston ASSRdan Rossiya fabrikalariga chorva junlarini yuborish davom etayotgan edi. Mazkur davrda Rossiyanig to'qimachilik va terini qayta ishlash zavod hamda fabrikalari Turkiston xomashyosisiz faoliyat yurita olmas edi. Arxiv manbalariga ko'ra, 1920-1921-yillarda Turkiston ASSR dan Rossiyaga 520 ming pud jun, 750 ming dona qo'y terisi va 350 ming dona qoramol terisi eksport qilingan. Bundan tashqari, mazkur yillarda 5297 pud ot juni Rossiya bozorlariga yuborilgan. Mazkur jun va teri mahsulotlar aksar qismi avval yig'ib qo'yilib, omborlarda saqlanayotgan tovarlar bo'lgan. Chunki 1917-1919-yillardagi turli harbiy va siyosiy nizolar oqibatida bu mahsulotlar chet davlatlarga eksport qilinmay qolingan.

## ADABIYOTLAR


1. O'z MA, I.18-fond, 1-ro'yxat, 23-ish, 321-varaq.
2. O'z MA, I.18-fond, 1-ro'yxat, 23-ish, 321-varaq orqasi.
3. Чеботарева В.Г. Из истории взаимоотношений СССР со странами сопредельного Среднего Востока в 1918-1924 гг. через Среднюю Азию. Диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Ташкент, 1963. – С.130.

4. Чеботарева В.Г. Из истории взаимоотношений СССР со странами сопредельного Среднего Востока в 1918-1924 гг. через Среднюю Азию. Диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Ташкент, 1963. – С.131-132.
5. Чеботарева В.Г. Из истории взаимоотношений СССР со странами сопредельного Среднего Востока в 1918-1924 гг. через Среднюю Азию. Диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Ташкент, 1963. – С.136.
6. Чеботарева В.Г. Из истории взаимоотношений СССР со странами сопредельного Среднего Востока в 1918-1924 гг. через Среднюю Азию. Диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Ташкент, 1963. – С.143.
6. O‘z MA, I.18-fond, 1-ro‘yxat, 23-ish, 321-varaq orqasi.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/1]
ISSN 2181-7324

TARIX
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:93-94

***Fazliddin JUMANIYOZOV,***
*Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali dotsenti*
*Email:zulfiqar-77@mail.ru*

*Tarix fanlari falsafa doktori PhD F.Tadjiyeva taqrizi asosida*

**THE DEMOGRAPHIC SITUATION IN UZBEKISTAN IN THE 90s OF THE 20 th CENTURY(AS AN EXAPLE OF KHOREZM REGION)**

Annotation
In this article, demographic processes in Khorezm region on the eve of independence are studied. The impact of factors such as population size, age, gender, ethnic composition and migration influencing the demographic situation is analyzed based on historical data.
**Key words:** Demographic situation, life expectancy, women, men, ethnic composition, rural and urban population.

**ДЕМОГРАФИЧЕСКАЯ СИТУАЦИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ В 90-Е ГОДЫ 20 ВЕКА (НА ПРИМЕРЕ ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ).**

Аннотация
В данной статье исследуются демографические процессы в Хорезмской области накануне обретения независимости. На основе исторических данных проанализировано влияние таких факторов, как численность населения, возраст, пол, этнический состав и миграция, влияющих на демографическую ситуацию.
**Ключевые слова:** Демографическая ситуация, продолжительность жизни, женщины, мужчины, национальный состав, сельское и городское население.

**XX ASRNING 90 YILLARIDA O‘ZBEKISTONDAGI DEMOGRAFIK VAZIYAT (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)**

Annotatsiya
Mazkur maqolada mustaqillikka erishish arafasida Xorazm viloyatidagi demografik jarayonlar tadqiq qilingan. Demografik vaziyatga ta’sir qiluvchi aholi soni, yoshi, jinsi, etnik tarkibi va migratsiya kabi omillarning ta’siri tarixiy ma’lumotlar asosida tahlil qilingan.
**Kalit so‘zlar:** Demografik vaziyat, o‘rtacha umr ko‘rish, ayollar, erkaklar, etnik tarkib, qishloq va shahar aholisi.

Kirish. Dunyo bo‘yicha barqaror rivojlanishni ta’minlash, aholining reproduktiv salomatligini saqlash, demografik jarayonlarni boshqarish, oilani to‘g‘ri rejalashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish, aholishunoslik va jamiyat taraqqiyotini mutanosiblashtirishga qaratilgan muhim maqsadlarni ifoda etadi. Aholi sonining dinamikasi, hududiy demografik tarkibi, ijtimoiy-iqtisodiy geografik shart-sharoitlarga monand ravishda o‘zgarib boradi va mamlakat, viloyat, shahar va qishloqlar domografik holatini, vaziyatini vujudga keltiradi. Shu boisdan, demografik rivojlanishning hududiy hususiyatlarini tadqiq etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan dolzarb muammolardan hisoblanadi.

O‘zbekistondagi demografik jarayonlar va uning o‘ziga xos hususiyatlari tarixchi, demograf va iqtisodchilar tomonidan o‘rganilmoqda. Mazkur jarayonlarni tarixshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etish bizga jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, migratsiya etnoassimiliyasion jarayonlar o‘zgarishi va millatlaro munosabatlarni holati bo‘yicha tahliliy xulosalar olish imkonini beradi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, eng muhim va eng qimmatli resurs hisoblangan inson omiliga, sog‘lom ona va sog‘lom bola tamoyiliga asoslangan demografik masalalarning hududiy jihatlariga alohida e’tibor qaratib kelmoqda. Bu borada amalga oshirilgan ishlar chora-tadbirlar onalar o‘limining 3,2 barobar, bolalar o‘limimning 3,4 barobar kamayishida, aholining o‘rtacha umr ko‘rish darajasini 66 yoshdan 73,5 yoshga uzayishida, aholi bandlik darajasining, ayniqsa ayollarda o‘sishda muhim ahamiyat kasb etdi [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘zbkistonda demografik jarayonlar ko‘plab tarixchilar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan R.B.Qodirov[2], S.N.Yusupova[3], O.Ata-Mirzayev[4], B.Isakov[5], L.Maksakova [5], D.Bobojonova[6] kabi olimlar tomonidan chuqur o‘rganilgan.

Lekin mazkur tarixchilarning tadqiqotlarida Xorazm viloyatida demografik jarayonlar to‘liq tahlil qilinmagan. Yo.Yu.Rozimova tadqiqotlarida mazkur masala urbanizatsiya jarayonlari asosida o‘rganilganligini ko‘rishimiz mumkin[7].

S.R.Davletov o‘zining tadqiqotlarida mintaqa-dagi ijtimoiy-ekologik vaziyatni Xorazm viloyatidagi demografik jarayonlarga ta’sirini o‘rgangan[8].

Asosiy qism. Tarixan O‘zbekiston tug‘ilish darajasi va aholining tabiy o‘sishi yuqori bo‘lgan mamlakatlar jumlasiga kiradi. Aholi sonining jadal ko‘payib borishi azaldan O‘zbekistonga xos hususiyat bo‘lib borgan. Masalan, 1991-yili Respublika aholisi soni 20607,7 nafariga[10,58], 2011-yilda 28453,8 kishiga teng bo‘lgan bo‘lsa, O‘zbekistonda 1991-2016-yillarda aholi sonining o‘sish surati 153,2 foizga teng bo‘lgan xolda o‘rtacha yillik ko‘payish 1.7 foizni tashkil etgan. Jumladan, mamlakat aholisining o‘rtacha yillik ko‘payishi 1990-1995-yillarda 2,15 foiz, 2010-2015- yillarda 1,70 foizga teng bo‘lgan holda muntazam pasayib borgan[11]. Mamlakat qishloq aholisining soni va salmog‘i qator yillarda katta ko‘rsatgichlarni tashkil etgan bo‘lsa ham, uning o‘rtacha yillik ko‘payishi yildan yilga kamayib borishi kuzatildi.

XX asrning 90-yillariga kelib O‘zbekistonning shimoliy qismida joylashgan Xorazm viloyatidagi demografik vaziyat siyosiy va iqtisodiy omillar ta’siri ostida murakkab davrni boshdan kechirdi. 1959-yil holatiga keladigan bo‘lsak Xorazm viloyatida 382554 ming aholi, 1970-yilda 556765 ming, 1979-yilda 747197 ming aholi 1989-yilda 1014846 ming aholi yashagan bo‘lib, shundan 1989-yil xolatiga ko‘ra 514974 ming ayollar va 506010 ming erkaklar tashkil qilgan[12].

Respublikaning boshqa xududlariga nisbatan Xorazm viloyatida umumiy aholining qishloqda yashovchi qismi son jihatdan katta ustunlikka ega bo‘lganni ko‘rishimiz mumkin. 1989-yilda shahar aholisi 261375 kishi va qishloq aholisi 733471 kishini tashkil qilgan[12]. 1979-yilda mehnatga layoqatli yoshdagi aholi 316796 kishi 1989-yilga kelib 460695 ga yetgan. Mehnatga layoqatli yoshga yetmaganlar esa 1979-yilda 366742 kishi 1989-yilda esa 482723 kishiga yetgan[12]. 1979-yilda shaharda yashovchi erkaklar 364108 kishini 1989-yilga kelib 498872 kishini ayollar esa 1979-yilda 383089 kishini 1979-yilda esa 515974 kishini tashkil qilgan[12].

1989-yilda aholining eng yuqori 15,8 %ni 4 yoshgacha bo‘lgan go‘daklar tashkil etgan bo‘lsa 40-44 yoshdagilar ulushi 2,8%tashkil qilgan. 1989-yilda 20-24 yoshdagi erkaklar ulushi aholining 8,4 % ayollar 9,1% ulushni tashkil qilgan[12]. Mazkur ma’lumotlar mustaqillikka erishish arafasida Xorazm viloyatida ayollarning ulushi ancha yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Ushbu davr mobaynida aholining savodlilik darajasini tahlil qilar ekanmiz 1989-yilda 39697 nafar aholi oliy ma’lumotli, 67244 o‘rta maxsus 255579 o‘rta ma’lumotli aholini tashkil qilganini ko‘rishimiz mumkin[12]. Viloyat aholisining etnik tarkibi ko‘p millatli bo‘lib, millatlarning asosiy qismi sovetlar davrida ko‘chib kelgan slavyan halqlari tashkil qilganini ko‘rishimiz mumkin.

**1979-1989 yillarda Xorazm viloyati aholisining etnik tarkibi**

| № | Millatlar nomi | 1979 yil | 1989 йил |
|---|---|---|---|
| 1 | Ruslar | 14637 | 12179 |
| 2 | Ukrainlar | 1195 | 2197 |
| 3 | Belaruslar | 305 | 505 |
| 4 | O‘zbeklar | 701233 | 957623 |
| 5 | Qozoqlar | 11242 | 14155 |
| 6 | Gruzinlar | 81 | 88 |
| 8 | Azarboyjonlar | 111 | 351 |
| 9 | Maldavanlar | 62 | 462 |
| 10 | Tojiklar | 80 | 233 |
| 11 | Turkmanlar | 4082 | 5996 |
| 12 | Qoraqalpoqlar | 518 | 664 |
| 13 | Tatarlar | 8520 | 7829 |
| 14 | Chuvashlar | 263 | 300 |
| 15 | Yahudiylar | 76 | 64 |
| 16 | Koreyslar | 5796 | 5865 |
| 17 | Forslar | 51 | 1215 |
| 18 | Qirg‘izlar | 28 | 40 |
| 19 | Nemislar | 53 | 13 |
| 20 | Boshqa millat vakillari | 1061 | 1399 |

2005-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra Xorazm viloyatining doimiy aholisi 1453,9 ming bo‘lib, uning tarkibida ayollarning ulushi 730,3 ming erkaklarning ulushi 723.6 mingni tashkil qilgan[13]. 2005-yilda ishga yaroqli aholi doimiy aholini 57,5 % tashkil qilgan bo‘lsa, 2006-yilga kelib bu ko‘rsatgich 58,0 % tashkil qilgani ko‘rishimiz mumkin. Mazkur davrda nafaqa yoshidagi insonlarning ulushi 6,4 % tashkil qilgan bo‘lib, Buxoro viloyatida bu ko‘rsatgich 7% Surxandaryo viloyatida bu ko‘rsatgich o‘rtacha 5,8 % tashkil qilganini ko‘rishimiz mumkin[13]. Tug‘ilish ko‘rsatkichi 2004-yil holatiga ko‘ra har ming kishiga 22.5 nafarni tashkil qilib bu mazkur davrda Respublika miqyosida eng yuqori ko‘rsatgichni tashkil qilgan.

**2007 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra viloyat aholining milliy tarkibi. (ming kishi)**

| Millatlar | **O‘zbeklar** | **Ruslar** | **Tatarlar** | **Turkmanlar** | **Qoraqalpoqlar** | **Koreyslar** | **Ukrainlar** | **qozoqlar** | **Boshqa millatlar** |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Miqdori | 1435,6 | 6.1 | 4,4 | 7,4 | 1,5 | 3,0 | 1,5 | 13,3 | 7,4 |
| Foizda | 97 | 0,4 | 0,3 | 0,5 | 0,1 | 0,2 | 0.1 | 0,9 | 0,5 |

Aholining tabiiy harakat koeffitsenti har ming kishiga 2005-yilda 21,7 nafarni tashkil qilgan.

2001-yil holatiga ko‘ra ishchi kuchi taklifi 10586 nafar bo‘lib ishchi kuchiga talab 14492 ta bo‘lgan. Xodimlar qo‘nimsizligi sababli ishdan bo‘shatilganlar 1164 nafarni tashkil qilgan[14].

2007-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra viloyatda 1480.2 ming aholi yashagan bo‘lib, ularning asosiy qismi Xozarasp(196.9ming), Xiva(186.4ming) va Urganchda (136,0ming) kabi 11 tumanlarda yashagan. Mazkur aholi 101 ta fuqarolar yig‘ini, 612 aholi yashash punkti va 432 nafar mahallalarda istiqomat qilgan[15]. Aholining asosiy qismi qishloqlarda yashagan bo‘lib mazkur ko‘rsatkich 1152,5 ming kishini tashkil qilgan. Tabiy o‘sish ko‘rsatgichi 2006-yilga kelib 26081kishiga yetganini ko‘rishimiz mumkin. Mazkur davrdagi migratsiya ko‘rsatkichini kuzatadigan bo‘lsak ko‘chib kelganlar 5743 kishi va ko‘chib ketganlar 8124 kishini tashkil qilganini kuzatimiz mumkin. Ya’ni bu davrda ko‘chib ketish jarayoni kuchayadi. 2007-yil viloyatda jami 538 ming aholi ish bilan band bo‘lib uning 126 ming nafari asosan byujet tashkilotlari va 200 mingi qishloq xo‘jaligida hizmat ko‘rsatgan. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar viloyatda

xususiy sektor va sanoat ishlab chiqarish sohalari rivojlanmaganligidan dalolat beradi.

2008-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra Xorazm viloyatining doimiy aholisi 1504,2 ming bo‘lib, shundan 755,2 ming nafari ayollar va 749,0 ming nafari erkaklar tashkil qilgan . 2008 - 2011-yillar o‘rtasida Xorazm viloyatida yashovchi qishloq va shahar aholisi tahlil qilsak 212,2 ming kishiga shahar aholisini o‘sganini ko‘rishimiz mumkin.

2010-yilda aholining tug‘ilish koeffitsiyentini kuzatadigan bo‘lsak, tug‘ilganlar 2836 va vafot etganlar 887 nafarni tashkil qilgan. 2011-yil Respublika bo‘yicha 20-29 yoshdagi fuqarolarning o‘rtacha turmush qurush ko‘rsatkichi 49,5% tashkil qilgan bo‘lib, Xorazm viloyatida bu ko‘rsatgich 50,1 % tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich Respublikada eng yuqori hisoblangan. 2010- yilda Respublika bo‘yicha ayollarni birinchi turmush qurish yozi 22,4 yoshni tashkil etgan bo‘lib ko‘rsatgich Xorazm viloyatida 23,0 yoshni tashkil qilgan. Mazkur davrda Namangan viloyatida o‘rtacha yosh 21,4 yoshni tashkil qilgan.

Xulosa va takliflar. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar asosida quyidagi ilmiy xulosalar shakllandi:

- mustaqillikka erishish arafasida yuz bergan chuqur ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz Xorazm viloyatidagi demografik vaziyatga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

- mazkur davrda aholi sonining o‘sishi viloyatda ishsizlik darajasini keskin o‘sishi ichki tashqi migratsiyani keskin kuchayishiga olib keldi.

- Xorazm viloyatida qishloq aholisining umumiy viloyat aholisi dinamikasiga ta’siri katta bo‘ldi, chunki viloyatda urbanizatsiya darajasi past bo‘lib, milliy tarkibda mahalliy millat vakillarining ko‘pligi sababli qishloqlarda tug‘ilish darajasi yuqori edi

- Mustaqillikning dastlabki yillari respubli-kada bo‘l-gani sari Xorazm viloyatidagi migratsiya jarayonlari asosan sobiq ittifoq davlatlariga qaratilgan.

## ADABIYOTLAR


1. Tojiyeva Z.N. O‘zbekiston Respublikasida demografik jarayonlar va ularning hududiy xususiyatlari. Geografiya fanlari doktori (DSc)…diss.-Toshkent, 2017.
2. Qodirov R.B. Farg‘ona mintaqasi aholisi va mehnat resurslari. –Toshkent. “Navro‘z”, 2016.
3. Yusupova S.N. O‘zbekistonda demografik jarayonlar va ularning millatlararo munosabatlarga ta’siri. Tarix fanlari doktori (PhD)…diss. Avtoreferati.-Andijon, 2019.
4. Ata-Mirzayev O., Gentshke V., Murtazayeva R., Saliyev A. Istorika-demograficheskiye ocherki urbanizatsii Uzbekistana. –Tashkent: “Mumtoz so‘z”, 2019.
5. Isakov B. O‘zbekistonda 80-yillarning ikkinchi yarmi-2000-yillardagi tarixiy o‘zgarishlarning demografik jarayonlarga ta’siri. Tarix fanlari nomzodlik…diss. Avtoreferati.-Toshkent, 2010.
6. Maksakova L. Demograficheskiye problemы zanyatnost v Uzbekskoy SSR. –Tashkent; Uzbekistan,1989.
7. Bobojonova D. O‘zbekistonda demografik jarayonlar va ularning xususiyatlari. –Toshkent:Fan, 1995.
8. Rozimova YO.YU. O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari. (Xorazm viloyati va Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida 1991-2007-y). Tarix fanlari nomzodlik…diss. Avtoreferati.-Toshkent, 2010.
9. Davletov S.R. XX asrning so‘nggi choragida Quyi Amudaryo hududida ijtimoiy ekologik vaziyat va demografik jarayonlar. Tarix fanlari nomzodlik…diss. Avtoreferati.-Toshkent, 2003.
10. Численность населения Узбекистана. Госкомстат Узбекистана. Стат.сбор.-Ташкент. 2007.
11. Tojiyev Z.N. O‘zbekiston Respublikasida demografik jarayonlar va ularning hududiy xususiyatlari. Geografiya fanlari doktori (DSc)…diss. Avtoreferati.-Toshkent, 2017.
12. Xorazm viloyat statistika boshqarmasi axborotnomasi. Urganch 1990 y..Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике.Статистический ежегодник регионов Узбекистана. Ташкент.-2006.
13. Xorazm viloyati davlat arxivi: fond 13, ro‘yxat 1, hujjat 63, varaq 2.
14. Xorazm viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli. Xorazm viloyati hokimligi. Urganch. 2007y.

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/1]**
**ISSN 2181-7324**

**TARIX**
https://science.nuu.uz/
Social sciences

**UDK:94.286**

***Lutfillo MAMASAIDOV,***
*Namangan davlat universiteti o‘qituvchisi*
*E-mail: Rashid_4062303@mail.ru*

*t.f.n. dots., A.Erqo‘ziyev taqrizi asosida*

## XALQ TA`LIMI SOHASIDAGI ISLOHOTLAR YANGI BOSQICHDA (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA)

Annotatsiya

Maqolada 2017-2021-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi sohasida amalga oshirilgan islohotlar, maktablarda ta’limning sifati va uni rivojlantirish bo‘yicha bajarilgan ishlar, o‘quvchilarning bilim darajalarini oshirish maqsadida amaliyotga tadbiq etilgan dasturlar hamda ularning natijalari, zamonaviy maktablar tashkil etish, mavjud kamchiliklarni bartaraf qilish bo‘yicha amalga oshirilgan islohrtlar haqida ma’lumotlar yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Maktab, ta’lim, zamonaviy maktab, dastur, xalq ta’limi, TIMSS, PIRLS, TALIS, PISA.

## РЕФОРМЫ В ГОСУДАРСТВЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ НА НОВОМ ЭТАПЕ (НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКОГО РАЙОНА)

Аннотация

В данной статье содержится информация о реформах, проведенных в сфере государственного образования Республики Узбекистан в период 2017-2021 годов, качестве образования в школах и проделанной работе по его развитию, программах, реализуемых на практике с целью повышения уровня знаний учащихся и их результатов, о организация современных школ, реформы.

**Ключевые слова:** Школа, образование, современная школа, программа, государственное образование, TIMSS, PIRLS, TALIS, PISA.

## REFORMS IN PUBLIC EDUCATION AT A NEW STAGE (ON THE EXAMPLE OF NAMANAGAN REGION)

Annotation

In this article contains information about the reforms carried out in the field of public education of the Republic of Uzbekistan during the period 2017-2021, the quality of education in schools and the work done to develop it, the programs put into practice in order to increase the level of knowledge of students and their results, the organization of modern schools, reforms

**Key words:** School, education, modern school, program, public education, TIMSS, PIRLS, TALIS, PISA.

**Kirish.** O‘zbekistonda xalq ta’limi sohasini rivojlantirish masalasiga alohida e’tibor berilmoqda. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab xalq ta’limi sohasida uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlarini yo‘lga qo‘yish, yangi ta’lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash, ularni yangi o‘quv hamda laboratoriya anjomlari, kompyuter texnikasi va o‘quv-metodik qo‘llanmalar bilan jihozlash orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlashda samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta’biri bilan aytganda “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi hamda baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch hamda imkoniyatlarini safarbar etamiz va bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko‘taramiz” deya ta’kidlaydilar [1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Namangan viloyati xalq ta’limi tizimiga oid adabiyotlari tahlili shuni ko‘rsatdiki, ushbu davrda kechgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar kommunistik partiya mafkurasiga bo‘ysundirilgan holda, sinfiylik nuqtai nazaridan o‘rganilgan. Shuningdek, umumta’lim sohasidagi mavjud muammolar, xususan, kadrlar yetishmasligi, moddiy-texnik bazaning qoniqarsiz ahvolda ekanligi, ta’lim muassasalari joylashgan binolarning talab darajasida emasligiga doir ma’lumotlarni yoritishga ham e’tibor qaratildi.

Mavzuga oid adabiyotlari va ilmiy tadqiqotlari 1991–2022-yillarda amalga oshirilgan bo‘lib, unda mustaqillik davrida xalq ta’limi sohasida olib borilgan islohotlar tahlil qilingan. O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki yillarida yozilgan bir qator ilmiy maqolalar, monografiya va tadqiqotlar mazkur mavzuga nisbatan yaqinligi bilan ajralib turadi. Jumladan, mazkur davrda amalga oshirilgan Z. U. Haydarovning “Namangan viloyatining sovet davri va mustaqillik yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy tarixi: qiyosiy tahlil” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida viloyatning sovet va mustaqillik yillaridagi iqtisodiy-ijtimoiy masalalari bilan birga xalq ta’limi tizimiga ham alohida to‘xtalingan bo‘lib, xalq ta’lim sohasida mustaqillik yillarida olib borilgan islohotlar atroflicha yoritilmagan.

T. Hatamovning “O‘zbekiston umumta’lim maktablari ta’lim islohotlari tizimida: muammolar yechimi va istiqboli (1991-2009-yy)” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida Namangan viloyati xalq ta’limi tizimiga oid ayrim ma’lumotlar keltirilib, unda asosan, mustaqillikning dastlabki yillarida umumta’lim maktablaridagi yangilanishlar va ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash borasidagi islohotlarga tarixiylik hamda tizimlilikdan kelib chiqqan holda yondashilgan. Ammo, ushbu tadqiqotda Namangan viloyati xalq ta’lim tizimida amalga oshirilgan ishlar batafsil yoritilmagan.

Tadqiqot mavzusini yoritishda xizmat qiluvchi Q. Hoshimov, O‘. Abdullayev, U. Elmuratova, N. Sharipova, N. Isamatovalarning ilmiy izlanishlar Farg‘ona vodiysida mustaqillik yillaridagi ta’lim sohasidagi amalga oshirilgan islohotlar va erishilgan yutuqlar haqida ko‘plab ma’lumotlar tarixiy dalillar asosida keltirilgan. Lekin, mazkur tadqiqot mintaqaviy xarakterga ega ekanligi, unda Namangan viloyati xalq ta’limi tizimida davriylik nuqtaiy nazardan amalga oshirilgan ko‘plab islohotlar aks etmagan.

**– Tadqiqot metodologiyasi.** 2017-yil jamiyatimizning barcha sohalari qatori xalq ta’limi sohasida ham yangilanish davri bo‘ldi. Shu yildan boshlab ota-onalar hamda keng jamoatchilik talablaridan kelib chiqqan holda respublikada umumta’lim tizimi 11 yillik etib belgilandi. Bu esa mamlakatda yangi ish o‘rinlarining vujudga kelishi, yangi maktablarning bunyod etilishi, maktablarning moddiy-texnik bazasini yanada boyitilishi hamda mustaqil hayotga qadam qo‘yayotgan o‘quvchi-yoshlarni yangi kasb-hunar bilimlarini egallashga bo‘lgan imkoniyatlarini yanada oshirib mavzuni qiyosiy va miqdoriy tahlil, tanqidiy hamda xronologik tahlil va pragmatik tahlil usullarini yoritiladi.

**– Tahlil va natijalar.** Namangan viloyatida 2017–2018-o‘quv yilida 682 ta umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 38850 nafar 9-sinf bitiruvchilaridan 21922 nafari (56,1%) 10-sinf, 17008 nafari (43,7%) esa akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida o‘qishni davom ettirish istagini bildirdi. 10-sinflar uchun viloyatda jami 102 ta o‘quv ishlab chiqarish majmualari tashkil etilgan bo‘lib, bulardan 90 tasi kasb-hunar kollejlari, 12 tasi oraliq masofasi 10 km.dan uzoq bo‘lgan umumta’lim maktablari bazasiga to‘g‘ri keladi. Maxsus va chuqurlashtirilgan tayyorgarlik talab etmaydigan 40 ta kasb-hunar yo‘nalishlari bo‘yicha 21922 nafar o‘quvchilardan so‘rovnoma o‘tkazildi. Unga ko‘ra, 271 nafari oshpazlik, 30 nafari novvoylik, 306 nafari qandolatchilik, 596 nafari pazandachilik, 5520 nafari tikuvchilik, 582 nafari bichuvchi, 385 nafari sartarosh va boshqa kasblar bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi [2].

Respublikadagi umumta’lim maktablarning 466 ming nafar 9-sinf bitiruvchilari hisoblansa, ularning 352 ming nafar 10-sinflarda o‘qishni davom ettirishni istaganlar, qolgan 114 ming nafari esa akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida o‘qishni davom ettirish istagini bildirganlar. Bular uchun 9656 ta umuta’lim maktablar va 615 ta kollejlarda o‘quv ishlab chiqarish majmualar tashkil etilib, endilikda yuqori sinflar ushbu majmualarda 20 dan ortiq kasb-hunar sirlarni o‘rganishlari yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, umumta’lim maktablarda ta’lim olayotgan yuqori sinf o‘quvchilari 5 kun umumta’lim, 1 kun (6 soat) esa kasbiy fanlarni o‘zlashtirish imkoniyati yaratildi [3].

2017-2018-o‘quv yilidan boshlab, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida darsliklarni ijaraga berish tizimi joriy etildi va mazkur o‘quv yilida umumkasbiy va maxsus fanlardan 244 nomdagi darslik va o‘quv qo‘llanmalar nashr etish rejalashtirildi. Shuningdek, ushbu darslik va o‘quv qo‘llanmalarning 47 nomdagisi yangi avlod o‘quv adabiyotlari hisoblanadi [4].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 25-yanvardagi “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga asosan, kasb-hunar ta’limini rivojlantirish yangi bosqishga olib chiqildi. Masalan, Namangan viloyatidagi umumta’lim maktablarining barcha 10-sinf o‘quvchilaridan so‘rovnoma olindi. Mazkur so‘rovnomalarga 37805 nafar 10 sinf, 20868 nafar 11-sinf o‘quvchilari jalb qilindi.

Shuningdek, maxsus va chuqurlashtirilgan tayyorgarlik talab etmaydigan 51 ta kasb-hunar yo‘nalishlari – avtomobillarni ta’mirlash texnigi, haydovchi, tikuvchi, quruvchi va boshqa kasb-hunarlar bo‘yicha kasbiy bilimlar berilgan [5]. Bundan ko‘zlangan maqsad, yuqori sinf o‘quvchilarining darsdan bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, o‘zlari qiziqqan sohalar bo‘yicha ikki yillik muddatda professional kasb egasi bo‘lib yetishishlari va yangi hayotga tayyorlash uchun zamin yaratish iborat bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasida 2017-yil noyabrdan ta’limning barcha sohalarida ta’lim berishning sifatini ta’minlash, o‘qituvchi va o‘quvchilarning bilim darajasini nazorat qilish, dars jarayonlarini tashkil etishda ilmiy asoslangan, mantiqiy, professional, shaffof hamda adolatlilikni ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tashkil etildi. Ushbu inspeksiyaning tashkil etilishi O‘zbekistonda ta’lim sohasidagi davlat siyosatini qay darajada amalga oshirilayotganligini nazorat qilish, belgilangan vaqtlarda ta’lim berayotgan ustoz va murabbiylarning faoliyatlarini muvofiqlashtirish va DTS asosida ta’lim jarayonlari borishini nazorat qilishda muhim rol o‘ynagan.

Masalan, 2017–2018-o‘quv yilida belgilangan rejaga asosan, viloyatda I chorak yakunlariga ko‘ra, Namangan shahri, Kosonsoy va Chust tumanlarining 4-sinf o‘quvchilaridan ona-tili, tabiatshunoslik, ingliz tili va matematika, 5-sinf o‘quvchilaridan esa ona tili, tarix, ingliz tili, rus tili va matematika fanlaridan nazorat ishlari olindi. O‘rganish natijalariga ko‘ra, 4–5 sinflarning umumiy o‘zlashtirish samaradorligi, (Namangan shahri, Kosonsoy va Chust) viloyat bo‘yicha 52 foizni tashkil etgan, xolos. Mazkur holat yuqoridagi hududlarda keltirilgan fanlarni yaxshi o‘qitilmasligi yoki ta’lim beruvchi o‘qituvchilarning metodik bilimi yetishmasligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Yana shunday holatlarni 2018-yilning 18-fevralda viloyatdagi fan metodistlarining uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish yo‘nalishidagi natijalarini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan “Onlayn” test sinovlarida 105 nafar mutaxassislar qatnashgan bo‘lsa, ularning 9 (8.5 foizi) nafari 86–100 ballgacha to‘plagan xolos. Qolgan 34 (32.3 foizi) nafar 71–85 ballgacha, 45 (42.8 foizi) nafari 55–70 ballgacha, achinarlisi esa 20 (19 foizi) nafari esa 55 balldan kam to‘plagan [6].

Yuqoridagi o‘zlashtirish darajalarining pastligi ushbu soha vakillarining o‘z bilimlari ustida doimiy asosda ishlamasliklari yoki ularga berilgan vazifalarning ko‘pligidadir.

O‘z o‘rnida, Respublikadagi umumta’lim maktablarida ham yuqoridagi holatlarni ko‘rish mumkin. 2018-yilning may oyida O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi va YuNISEFning O‘zbekistondagi vakolatxonasi bilan xamkorlikda “O‘quvchilarning muvaffaqiyatli o‘zlashtirishiga salbiy ta’sir etuvchi omillarni aniqlash” mavzusida o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida respublikamizning barcha hududlarida xalqaro talablar asosida tanlab olingan 255 ta maktabning 268 ta sinfida (219 ta o‘zbek, 49 rus) tahsil olayotgan 7002 nafar (5489 o‘zbek, 1513 nafar rus) 4-sinf o‘quvchilarning matematika, o‘qish va tabiatshunoslik fanlaridan bilimlari sinovdan o‘tkazilgan. Natijalarga ko‘ra, o‘quvchilar matematika fanidan 52.2 foiz, tabiatshunoslikdan 47 foiz, o‘qib, tushunish bo‘yicha 28.7 [7], uchta fandan o‘quvchilar o‘rtacha bilimi 42.6 foizni tashkil etgan.

Mazkur natijalar aslini olganda juda achinarlidir. Sababi, boshlang‘ich sinflarda ta’lim olayotgan o‘quvchilar o‘qish va matematik bilim darajalari endi shakllanayotganligi hamda maktablarda o‘quvchilar bilan doimiy asosda o‘qituvchilar shug‘ullansa-da, maktabdan keyingi (uyda) vaqtlarda ota-onalarning farzandlar bilan ularning bilimlari ustida shug‘ullanmasliklari ham yuqoridagi natijalarning pasayishiga olib kelgan.

Shu nuqtai nazardan, ushbu holatlarni barham berish, o‘quvchilarni bilim darajalarini oshirish va xalqaro ta’lim standartlari asosida o‘qitishni yo‘lga qo‘yish maqsadida 2018-yil 8-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli qarori bilan boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholash uchun (PIRLS), 4 va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasini baholash uchun (TIMSS), 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash uchun (PISA), rahbar hamda pedagog kadrlarning umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘qitish va ta’lim olish muhitini hamda o‘qituvchilarning ish sharoitlarini o‘rganish uchun (TALIS)[8] dasturlari bo‘yicha ishlar tashkil etilishi ko‘zda tutilgan.

Shu asnoda, mamlakatimiz 2021-yilda ilk marotaba o‘tkaziladigan PISA (15–16 yoshli o‘quvchilarning bilimlarini baholash bo‘yicha xalqaro dastur) xalqaro dasturda ishtirok etadi. Ushbu dasturda 90 ga yaqin mamlakat ishtirok etishi rejalashtirildi[9]. O‘quvchilar bilimlarini baholash bo‘yicha xalqaro dasturning reytingida O‘zbekiston 2021-yilda 70 talikka, 2025- yilda 60 talikka, 2030-yilga borganda esa 30 ta ilg‘or mamlakatlar qatoriga kirish ko‘zda tutilgan [10].

Ushbu maqsadlarga erish bo‘yicha chora-tadbirlar 2019-yil 29-aprelda qabul qilingan “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” tasdiqlandi. Mazkur konsepsiyaga asosan, O‘zbekistoida xalq ta’limi tizimini milliy an’analar va xalqaro tajribalardan kelib chiqqan holda rivojlantirish nazarda tutilgan bo‘lib, unga ko‘ra, o‘quvchilarning kreativ fikrlashni rivojlantirish, matematika, tabiiy va o‘qish savodxonligi bo‘yicha bilimlarini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Ta’lim jarayonlariga o‘ziga xos qulaylik va yangiliklarning joriy etilishi, o‘quvchilarning yangi bilimlarni o‘zlashtirishga va berilayotgan vazifalarning tez hamda ravon o‘qiy olish emas, balki darslikdan tashqari berilgan matnlarni o‘qib, uni qanchalik tushunishi, talqin qila olish va fikrlarni ravon tilda yozma bayon eta olish ko‘nikmalarini hosil qiladi.

2019-yil oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi va Jahon banki hamkorlikda xalqaro tadqiqotlar hamda tamoyilllar asosida o‘tkazilgan sinovlarda Namangan viloyatidagi 13 ta ta’lim muassasasidan 356 nafar o‘quvchi TIMSS talablari bo‘yicha tuzilgan sinovlarda o‘zlashtirish darajasi 81.0 foizni tashkil etgan holda respublikada birinchi o‘rinni egalladi [11]. Bu esa viloyatda aniq va tabiiy fanlarni o‘qitilishiga e’tiborning yaxshiligi hamda dars jarayonlariga xalqaro tajribalarni asta-sekinlik bilan joriy etilayotganligidan dalolatdir.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa o‘rnida shuni qayd etish kerakki, O‘zbekistonda Xalq ta’limi sohasidagi islohotlar davlatimizning iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqqan holda tizimlilik asosida amalga oshirilmoqda. 2017–2021-yillar tom ma’noda O‘zbekiston uchun har sohada rivojlanish hamda taraqqiy etish davri bo‘ldi. Xalq ta’limi sohasidagi o‘zgarish-lar “Harakatlar strategiyasi”ning 4.4 bandida keltirilgan islohotlar zamirida amalga oshirildi. Islohotlar negizida ta’lim jarayonlariga xalqaro tajribalarni joriy etish orqali ta’lim sifatini oshirish, maktablarni dunyo standartlari asosida qayta modernizatsiya qilish, o‘quvchilar orasida kitobxonlik madaniyatini keng targ‘ib qilish, axborot va kommunikat-siyalar sohasidagi bilimlarini oshirish, sog‘lom hayotni qoidalarini o‘quvchilar orasida keng targib qilish borasida, maktabdan tashqari vaqtlarda bolalar va o‘smirlar sport maktablari faoliyatini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor berildi.

## ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so‘zi. 2018 -yil 29 -dekabr.
2. Namangan viloyati xalq ta’limi boshqarmasining 2017 -yil hisobotlari. – B. 5.
3. Umumiy o‘rta ta’lim // Ma’rifat. № 30. 2017- yil 6- sentyabr.
4. O‘rta maxsus, kasb-xunar ta’limi // Ma’rifat. № 30. 2017- yil 6- sentyabr.
5. Namangan viloyati xalq ta’limi boshqarmasining 2018- yil hisobotlari..... – B. 26.
6. Ta’lim sifati va mazmuni – yangi bosqichda // Murabbiy. – 2018- yil 16–30- avgust. – №16.
7. Ta’lim sifati – davlat nazoratida // Ma’rifat. – 2018- yil 1- dekabr. – № 96.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori // lex.uz/docs/-4097073.
9. Nosirov A. Pisa va Talis tadqiqotlari O‘zbeksitonga nima beradi // Ma’rifat. – 2019- yil 14- dekabr. – №97.
10. Ismoilov A. Xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik qanday ketmoqda // Ma’rifat. – 2020- yil 1- iyun. – №22.
11. Respublikada birinchi o‘rin // Murabbiy. – 2020- yil 21- oktyabr. – №21.

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/1]**
**ISSN 2181-7324**

**TARIX**
https://science.nuu.uz/
Social sciences

**UDK: 93.904**

*Yayra TURABOYEVA,*
*Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti katta o‘qituvchisi*
*ADU tayanch doktoranti*
*E-mail:tyayraxon@mail.ru*

*Tarix fanlari nomzodi, dotsent R.Yusupov taqrizi asosida*

## ARCHAEOLOGICAL SOURCES PROVIDE INFORMATION ON FERGANA VALLEY WOMEN'S JEWELRY

Annotation
The article reflected the sources of the period from the appearance of traditional jewelry by women of the Fergana Valley to the 20th century. Also, the period when women's jewelry of social and cultural marriage of the local population began to appear in various tumultuous manifestations, the process of disembarking jewelry magik and fetishistic tasks from the time of the emergence of the first human communities is described.
**Key words:** Gold, Silver, women's jewelry, trade, household life, amulets, beads, jewelry, bracelets, rings, backpacks, earrings.

## АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ ИСТОЧНИКИ ПРЕДОСТАВЛЯЮТ ИНФОРМАЦИЮ О ЖЕНСКИХ УКРАШЕНИЯХ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ

Аннотация
В статье отражены источники периода от появления традиционных украшений у женщин Ферганской долины до 20 века. Также описан период, когда женские украшения социального и культурного брака местного населения начали появляться в различных бурных проявлениях, процесс высадки ювелирной магии и фетишистских задач со времени возникновения первых человеческих сообществ.
**Ключевые слова:** Золото, серебро, женские украшения, торговля, быт, амулеты, бусы, бижутерия, браслеты, кольца, рюкзаки, серьги.

## ARXEOLOGIK MANBALARDA FARG‘ONA VODIYSI AYOLLARI TAQINCHOQLARIGA OID MA’LUMOTLAR

Annotatsiya
Maqolada Farg‘ona vodiysi ayollari an’anaviy taqinchoqlarining paydo bo‘lishidan boshlab to XX asrgacha bo‘lgan davr manbalari aks ettirildi. Shuningdek, mahalliy aholining ijtimoiy va madaniy turmushdagi ayollar taqinchoqlarining turli tumun ko‘rinishlarda namoyon bo‘la boshlagan davri, ilk inson jamoalarining paydo bo‘lish davridan boshlab taqinchoqlar magik va fetishistik vazifalarni barajarish jarayoni bayon etiladi.
**Kalit so‘zlar:** Oltin, kumush, ayollar taqinchog‘i, savdo, maishiy turmush, tumor, munchoq, taqinchoq, bilaguzuk, uzuk, halqa, zirak.

**Kirish.** Qadimda Farg‘ona vodiysining katta qismi o‘troq dehqonchilik va yarim ko‘chmanchi tarzida hayot kechirgan etnik jamoalari birlashmasidan iborat bo‘lgan. Mintaqada yashovchi etnik jamoalarning ibtidoiy diniy tasavvurlari va magik qarashlari mahalliy aholi orasida ibtidoiy kiyim-kechaklar bilan birga uning muhim kompanenti bo‘lgan taqinchoq va bezaklarning ham paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

Insoniyat taraqqiyoti jamoasining paydo bo‘lishi, madaniy tasavvurlarning ilk uchqunlari, savdo munosabatlari, etnik o‘troqlashuv va hunarmanchilik turlarining paydo bo‘lishi taqinchoq va bezaklarning taraqqiy etib borishiga, keng tarqalishiga va takomillashib borishiga olib keldi. Ayollarining zeb-ziynat, bezak va taqinchoqlarni tadqiq etish orqali xudud etnoslararo aloqalar, mahalliy etnik jamoalarning maishiy turmushi, diniy tasavvurlari, urf-odat va marosimlari, savdo munosabatlari, ijtimoy-siyosiy hayoti, estetik tafakkuri, xalq hunarmandchiligi ahamiyati xususida xulosalarni chiqarish mumkin bo‘ladi. Ayollar taqinchoqlariga bag‘ishlagan tadqiqotlar orqali etnik va madaniy aloqalarni taxlil etish mumkin.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Farg‘ona vodiysida arxeologik qazishmalarning ochilishi natijasida ibtidoiy jamoalarning turmush tarzi va madaniyati xususidagi qimmatli ma’lumotlar jamlandi. Xududda arxeologik tadqiqotlar olib borgan rus tadqiqotchilari Y.A Zadneprovkiy, N.G. Gorbunova, B.A Litvinskiy, A.N Bernshtam, G.P Ivanov, N.A Avanesova, O.A.Suxareva, N.G.Borozna, V.Nalivkin va M.Nalivkinalar, YE.M. Alekseyeva, B.Abdulg‘aziyeva, S.R Baratov, T.N. Buligina, G.P Ivanov hamda mustaqillik davri tadqiqotchilari B.X Matboboyev, R.X. Suleymanov, K.SH. Tabaldiyev, A.Asqarov, A.A Anorboyev, M.Isomiddinov-[1]ilar tomonidan olib borilgan arxeologik tadqiqotlar davomida Farg‘ona vodiysining tarixi, madaniyati, shaharsozligi, u diniy qarashlari, moddiy ashyolar asosida o‘rganildi. Topilmalar ichida marxumlar qabrlardan ayollar taqinchoqlari bilan birga ko‘milganligi aniqlandi. Insonlar turli sabablarga ko‘ra taqinchoqlarni turmush madaniyatining bir qismiga aylantirganlar. Ibtidoiy diniy tasavvurlar va magiya, tabiat kuchlari oldida insonlarning ojizligi, madaniy estetik xissiyotlarining ilk uchqunlari insonlar maishiy turmushida taqinchoqlar(tosh va xayvon suyaklaridan yasalgan)ning paydo bo‘lishiga zamin yaratdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ayollar taqinchoqlari mavzusi turli yo‘nalishlarda tadqiqot obyekti bo‘la oladi. Xususan, etnografiyada ham. Maqolani yoritishda tarixiy taxlil metodidan hamda dala tadqiqotlari metodlaridan foydalanildi.

Taxlil va natijalar. Uzoq yillar mobaynida olib borilgan arxeologik tadqiqotlari natijalariga ko‘ra bronza va temir davriga oid ko‘plab metal taqinchoqlarning topilishi bu xususidagi tasavvurlarni yanada boyitadi. Arxeolog B.Matboboyevning tadqiqotlarida Farg‘ona vodiysi arxeologik qazishmalar davomida topilgan moddiy ashyolar ichida taqinchoqlar ko‘p uchraganligini ta’kidlaydi [2].

Markaziy Osiyo xalqlari tarixida islom dini kirib kelgunga qadar bo‘lgan davr mobaynida turli diniy e’tiqodlarni o‘zida jamlagan taqinchoq va bezaklar bir nechta

maqsadlarda foydalanilgan hamda ular insonlar turmushida turli vazifalarni o‘tagan[3]ligini ta’kidlash mumkin.

Janubiy Farg‘onadan topilgan qabristonlarda karnay-gul shaklidagi bronza baldoqlarni rus arxeologi N.A Avanesova tomonidan o‘rganiladi hamda u Andronova madaniyatining metal buyumlarini kopleks taxlil etib shunday sirg‘alarni (ziraklar) Markaziy Osiyo yodgorliklarida miloddan avvalgi XII-XII asrlarga tegishli ekanligini bildirdi[4].

Farg‘ona vodiysi eng qadimgi dehqon jamoalari madaniyatini tadqiq etgan Y.A Zadneprovkiy Chust makonidan oyna va bilakuzuk, suyakdan yasalgan taroq buyumlarini topadi[5]. Shuningdek arxeolog miloddan avvalgi IV-I asrlarga oid bo‘lgan SHo‘rabashat shahar xarobalirdan ayollar taqinchoqlari (uzuk va munchoqlar)[6] topishga erishdi.

1956-yil N.G.Gorbunova Farg‘ona viloyatida Yapagi va Chek qabristonlarini topib o‘rgandi va Yapagi qabristonida jami 12 ta mozorlardan mis oinacha, mayda mis va argelit munchoqlar, 2 ta mis uzuk va 2 ta zirg‘a parchalari topdi[7]. Shuningdek, Farg‘onada bir tomoni uchli, boshqa tomoni yumaloqlangan temir to‘g‘nog‘ich topiladi. Bu kabi temir to‘g‘nog‘ichlar arxeologik materiallar ichida juda kam uchrashi aytilgan[8].

Farg‘ona vodiysi qadimgi qabrlaridan topilgan metal taqinchoqlar: bilakuzuklar, munchoqlar, uzuk va xalqalar, ziraklar hamda turli metaldan yasalgan bezaklar va ularning texnikasi xususida sovet davri tadqiqotchisi B.A Litvinskiy qimmatli ma’lumotlarni beradi[9]. Kompleks taxminan miloddan avvalgi II mingiyilliklarning oxirgi choragiga[10] tegishdir. Vodiyda temir bilakuzuklar yumaloq yupqa bo‘lmagan simdan tayyorlangan. Bir tomon uchi bir oz yo‘nilgan, ikkinchi uchi «ilon boshi»ga o‘xshatib shakl berilgan bilakuzuklar o‘lkaning boshqa xududlarida borligi aytiladi[11].

1986-yilda Farg‘ona shahrida suv quviri o‘tkazish vaqtida qadimgi qabristonlarga duch kelinadi. Ularni arxeolog G.P Ivanov Farg‘ona Qashqarcha massividan o‘rgani boshlaydi. Topilmalar ichida miloddan avvalgi II ming yilliklarga oid bo‘lgan ayollar taqinchoqlari oltin, kumush va bronzadan yasalgan ziraklar, bronza bilakuzuklari topiladi[12].

Ayollar taqinchoqlaridan amaliy bezak xususiyatlari takomillashib borgan ilk o‘rta asrlarga oid bo‘lgan maxalliy xukumdorlarning ijtimoiy mavqeyi va moddiy imkoniyatlarini ko‘rsatish usuli sifatida namoyon bo‘la boshlagan. Farg‘ona tarixining V-X asrlar davriga oid xitoy manbalaridan eng mashxuri “Suyshu” (Suy sulolasi tarixi) asarida hukmdor oltindan yasalgan qo‘chqor shaklidagi taxtda o‘tirishi va xukmdor xotini esa oltindan yasalgan toj taqqani, oltin, temir[13]ma’dani ko‘pligini, uning qimmatbaholigi, martaba ramzi ekanligi ifodalangan.

1-rasm



1-rasm.Andijon. Kumush bilakuzuk-XII asr, kumush va filigrin.

2-rasm



2-rasm. Andijon. Ayollar ziragi. XX asr boshlari, kumush.

Farg‘ona vodiysining milodiy V-X asrlar tarixiga oid xitoy manbasi “Jinshu” (Jin sulolalari tarixi)da mahalliy xalq urf-odatlari bo‘yicha [yigitlari] uylanishdan oldin bo‘lajak kelinga taqish uchun sovg‘a sifatida yurak shaklidagi ikki ko‘zli oltin uzuk, bilakuzuk berish an’anasi borligi aytiladi[14]. Demak, vodiy ayollari turmushida taqinchoqlar, tayyorlanish texnikasi takomillashib borgan va mahalliy urf-odatlarda taqinchoqlar qimmatbaho buyum yoki hurmat, ehtirom, qiz uchun qalin puli kabi vazifalarni bajargan.

Amir Temur va temuriylar davrida zargarlik buyumlari hamda qurol-yarog‘ yasash metallga badiiy ishlov berishning maxsus tarmog‘i bo‘lgan. Zargarlar ayol taqinchoqlari, ot abzali va harbiy anjom qismlari ishlab chiqarishda oltin, kumush, mis, bronza va jezdan foydalangan. Ularga zumrad, feruza, chaqmoqtosh, marmar, marvarid, la’l, billur yoki shishadan ko‘z qo‘yilgan. Zargarlik buyumlari orasida Bibixonim maqbarisidan topilgan taqinchoq, Mironshoh qabridan chiqqan munchoq bo‘laklari alohida ahamiyatga ega[15] hisoblanadi.

XV asr boshlaridanoq Temuriylar oilasining zadagon ayollari bosh kiyimlari haqida ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo shunday deydi: “ Boshidagi qizil kiyim xuddi dubulg‘aga o‘xshaydi...” , bu dubulg‘a juda baland edi, unda durlar, yoqut va feruzalar yana turili tuman toshlar ko‘zga tashlanardi... undan yuqoriroqda tilladan qilingan bir chambar ham bor edi. Dubulg‘aning ustida ko‘shksimon soyabon bo‘lib, unga har biri ikki enlik keladigan 3 ta yoqut qadab qo‘yilgan edi, tepada oq sulton bo‘lib, undan bir-biriga zar ip bilan bog‘lab qo‘yilgan, uchlarida tosh va durlar yarqirab turgan qush patlari ko‘zgacha osilib turardi[16].

XV asrdan boshlab Markaziy Osiyo - Turkiston o‘lkalariga Yevropa sayyohlari, elchilari, savdogarlarining kelishi ko‘paydi, nodir qo‘lyozma va moddiy yodgorliklarni olib ketish kuchaydi. Bu jarayon ayniqsa XIX asrga kelib juda avj oldi.

Rossiyaning Turkistonni zabt qilish davrida moddiy va ma’naviy boyliklar rus qo‘shini tomonidan ayovsiz ravishda talandi. Mahalliy boyliklar ichida xonlar va beklarning xazinasida mavjud bo‘lgan qimmatbaho taqinchoqlar Peterburg va Moskva muzeylariga - Ermitaj, Sarskoye selo arsenali (qurol-yaroqxonasi), Moskvadagi Politexnika va Etnografiya muzeylariga jo‘natildi [17].

XIX asrda Buxoro, Toshkent, Qo‘qon, Samarqand, Xiva, Qarshi, Shahrisabz, Kitob shaharlari zargarlik san’atining eng yirik markazlari bo‘lgan. Ammo taqinchoqlar shakl va bazaklari bilan ajralib turgan va o‘sha joy uchun xos bo‘lgan umumiy xususiyatlarga ega buyumlarni ishlab chiqargan [18]. Qo‘qonda hunarmandchilik mazmunan boy va serqirra bo‘lgan. Bular: misgarlik, zargarlik, o‘ymakorliq, harbiy qurol ishlab chiqarish, sopol va do‘ppichilik, kashtachilik, ko‘priksozlnk, temirchilik va shu kabilar[19]. Qo‘qon bilaguzuklari asosan kumushdan tayyorlanib o‘rta asrlarga xos an’nani saqlagan. Qadimgi emallangan заргарлик namunalari ilgaridan bu xududlarda zargarlik yuksalganligidan dalolat beradi[20].

Xulosa sifatida taqinchoqlar kundalik turmushda jamiyatning barcha qatlamlari orasida hamda erkak, ayol, o‘g‘il va qiz bolalar foydalanadigan buyum-bezaklar qatoriga kirgan. Shuning uchun ular inson tanasi a’zolarini va kiyim-boshlarini bir qismi sifatida hamda ayolga latofat va nazokat, estetik ramz vazifasini aks ettiruvchi Farg‘ona vodiysi xar doim boshqa mintaqalarga nisbatan o‘z mahalliy xususiyatlari bilan ajralib turgan. Vodiy o‘zbek ayollari turmushida taqinchoqlar nafaqat bezak vositasi balki oilaviy meros(onadan qiziga berilgan taqinchoqlar yoki kelinga), farzardlar soni(taqinchoqlar buyutma asosida ayollarning farzandlari

soniga qarab taqinchoqdagi munchoqlar soni belgilandi), an’analar, marosim va udumlarning bir qismi sifatida o‘z asliyatini boyitib bordi.

**АДАБИЁТЛАР**


1. Заднепровский Ю.А. Чустская культура Ферганы и помятники раннежелезного века Средней Азии. Автореферат. Докс.дисс. Москва. 1978. 28-34 ст. Матбобоев Б.Х Локальные варианты чусткой культуры Ферганы. Ленинград. 1985. С.7-8; Горбунова Н.Г. Керамика поселений Ферганы первых веков н.э.//ТГЭ, Л, 1959,т.20, ст132; Горбунова Н.Г Шурабашатская керамика в Восточний Ферганы// АСГЭ, Л., вып 18; Литвинский Б.А. Орудия труда и утварь из могильников Заподной Ферганы. М; Литвинский Б.А. Древности Кайраккумов. Душанбе. 1962. 165 ст; Бернштам А.Н. Историка археологичкие очерки Центрального Тян- Шаня И Помиро Алая. Москва .Л., 1952; Иванов Г.П. Кашгарчинский могильник -новий памятник эпохи поездней бронзы в Фергане. // ОНУ, №Х, Т.: 1988, 44-47 ст; Аванесова Н.А. Проблемы истории андроновского культурного единства(по металлическим изделиям). Автореферат. Кон. Дисс. Л.: 1979. 17-24 ст; 1 Борозна Н.Г. Виды женских ювелирных украшении у народов Средней Азии и Казахстана (в связи с подготовкой - историко-этнографического атласа). Советская этнография. №1 янв-февр. 1974, Наука. Москва. 32-43 ст; Наливкин В. Наливкина М. Очерк быта женшины оседлаго туземного населения ферганы. Казань — 1886г. Р; Абдулгазиева Б. Восточная Фергана в древности и раннем средневековье (система расселения, районирование и типология). Дис. … канд. ист.наук. - Самарканд, ИА АН РУз, 1988; Баратов С.Р. Культура скотоводов Северной Ферганы в древности и раннем средневековье (по материалам курумов и мугхона); Дис. ... канд. ист. наук. – Самарканд, ИА АН РУз, 1991. -290 с; Булыгина Т.Н. Украшения древних ферганцев первой половины I тысячелетия нашей эры как исторических источник: Автореф. дис. ... канд. ист. наук. –М., 1987. -24 с; Иванов Г.П. Археологические культуры Ферганы (периодизация и синхронизация): Автореф. дис. ...канд. ист. наук. – Самарканд, 1999. -25 с; Матбабаев Б.Х. Локальные варианты чустской культуры Ферганы: Автореф. дис. ... канд. ист. наук. –Л., 1985. -18 с; Мирбабаев А.К. Дахмаки Курката и проблемы зороастрийской идеологии в Северной Средней Азии: Дис. … докт. ист. наук. - Душанбе, 1994; Семенов Г.Л. Согдийский город V-XI вв. Формирование плана (по материалам Пайкенда в Бухарском оазисе и Ак-Бешима в Семиречье): Дис. … докт. ист. наук в форме научного доклада. -С-Пб., 2002. -43 с; Сулейманов Р.Х. Древняя культура Южного Согда (VII вв. до н.э. - VII вв. н.э.): Автореф. дис. ... докт. ист. наук. -Самарканд, 1997. -36 с; Табалдиев К.Ш. Эволюция погребального обряда Внутреннего ТяньШаня в средние века: Автореф. дис. ... канд. ист. наук. – Новосибирск, 1994. -22 с; Asqarov A. O‘zbek davlatchiligining ilk bosqichida qadimgi Farg‘ona 2003; Анорбоев А. Городо Северний Ферганы в древности и ранним средневековие. ОНУ 1994; Isomiddinov M., Alioxunov A. Farg‘ona vodiysi ilk dehqon va chorvadorlari madaniyatini o‘rganilish tarixi va ayrim muammolar. // Farg‘ona vodiysi tarixi yangi tadqiqotlarda. Namangan. 2012.
2. Matboboyev B. Qadimgi Farg‘onaning ilk o‘rta asrlar davri madaniyati (V-VIII asrlar arxeologik manbalarining tarixiy tahlili asosida ). Dok. Diss. Samarqand. 2009, 174-bet.
3. Семенов А.. Из области возрений мусульман Средней Азия на качество и значение некоторых благородных камней и минералов, - «Мир ислама», т. I, 1942, № 3; Вамбери Г., Очерки и картины восточных нравов, СПб., 1877, стр. 63; Среднеазиатские ежемесячные литературно-исторические издания, кн. VII, Ташкент, 1911, стр. 103-119, и другие работы. В советской историко-этнографической литературе сведения об амулетах-украшениях можно почерпнуть в работах, касающихся материальной культуры народов Средней Азии. Так, например, см.: Таджики Каратегина и Дарваза, вып. 1, Душанбе, 1966, стр. 272-273, вып. 2, Душанбе, 1970, стр. 184-185; Сазонова М.В., Украшения узбеков Хорезма, - сб. «Традиционная культура народов Передней и Средней Азии», Л., 1970, стр. 113-142; Захарова И.В. Ходжаева Р.Д., Казахская национальная одежда (XIX — начало XX в.), Алма-Ата, 1964, стр. 136; С. Иванов В., Махова Е.И., Художественная обработка металла, — сб. «Декоративно-прикладное искусство киргизов», М., 1963, стр. 116; Антипина К.И., Особенности материальной культуры и прикладного искусства южных киргизов, Фрунзе, 1962, стр. 262; Жданко Т.А., Каракалпаки Хорезмского оазиса, — «Труды ХАЭЭ», т. I, М., 1952, стр. 36.
4. Аванесова Н.А. Проблемы истории андроновского культурного единства(по металлическим изделиям). Автореферат. Кон. Дисс. Л.: 1979. 17-24 ст.
5. Заднепровский Ю.А. Чустская культура Ферганы и помятники раннежелезного века Средней Азии. Автореферат. Докс.дисс. Москва. 1978. 28-34 ст. Матбобоев Б.Х Локальные варианты чусткой культуры Ферганы. Ленинград. 1985. С.7-8.
6. Заднепровский Ю. А. Древнеземледельческая культура Ферганн, М. —Л., 1962.
7. Горбунова Н.Г. Керамика поселений Ферганы первых вековн.э.//ТГЭ, Л, 1959,т.20, ст132; Шурабашатская керамика в Восточний Ферганы// АСГЭ, Л., вып 18.
8. Гамбург Б.З.,.Горбунова Н.Г. Новые данные о культуре эпохи бронзы Ферганской долины // СА. № 3. –М., 1957. 130-135 ст.
9. Литвинский Б.А. Орудия труда и утварь из могильников Заподной Ферганы. М.,
10. Литвинский Б.А. Древности Кайраккумов. Душанбе. 1962. 165 ст.
11. Литвинский Б.А. Украшения из могильников Западной Ферганы. – М.: Наука, 1973.-212 с.
12. Иванов Г.П. Кашгарчинский могильник -новий памятник эпохи поездней бронзы в Фергане. // ОНУ, №Х, Т.: 1988, 44-47 ст.
13. Xo‘jayev A. Farg‘ona tarixiga oid ma’lumotlar (Qadimiy va ilk o‘rta asr Xitoy manbalaridan tarjimalar va ularga sharhlar). Farg‘ona, 2013. –288 b.
14. Yuldashev S. Tarixiy manbalarda Farg‘ona vodiysining ilk o‘rta asrlar jamiyatidagi ayollar mavqeining aks etishi. Tarixiy manbashunoslik, tarixnavislik, tarix tadqiqotlari metodlari va metodologiyasining dolzarb masalalari respublika XII ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T.: 2020.194-bet.
15. Temuriylar tarixi davlat muzeyi eksponalari misolida.
16. Xo‘jayev A.. Buyuk ipak yo‘li. T.: 2007, 203 bet.
17. Абдуллаев Т., Фахритдинова Д., Хакимов А. Песнь в металле. Т.1986, 145-б.
18. Sodiqova N.. O‘g‘irlangan milliy boyliklarimiz. Fan va turmush” jurnali, 1991-yil, 9-son.
19. Абдуллаев Т., Фахритдинова Д., Хакимов А. Песнъ а металле. 146-бет.
20. Bobobekov N.H. Qo‘qon tarixi. Toshkent.:Fan. 1996, 100-bet.

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/1]**
**ISSN 2181-7324**

**TARIX**
https://science.nuu.uz/
Social sciences

**UDK:634.8(5751.)**

***Jahongir HAITOV,***
*Buxoro davlat universiteti dotsenti, PhD*
*Email: jahongir.hayitov.89@mail.ru*

*UzMU dotsenti, t.f.n. R.Tursunov taqrizi asosida*

## FROM THE HISTORY OF ENVIRONMENTAL PROBLEMS AND THEIR ELIMINATION ACTIONS IN BUKHARA

Annotation
In this article, new varieties of ornamental trees, which have entered the country in recent history, and their acclimatization, are revealed based on historical sources. Also, in the article, the works carried out within the framework of the "green space" initiative and its role in eliminating environmental problems are discussed in detail.
**Key words:** "Green space", "green shield", ecology, climate, climate change, green nature, drought, agriculture, agro-industry, forestry, ornamental tree, fruit tree.

## ИЗ ИСТОРИИ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ И МЕРОПРИЯТИЙ ПО ИХ УСТРАНЕНИЮ В БУХАРЕ

Аннотация
В данной статье на основе исторических источников раскрываются новые сорта декоративных деревьев, попавшие в страну в новейшей истории, их акклиматизация. Также в статье подробно рассматриваются работы, проводимые в рамках инициативы «Зеленое пространство» и ее роль в устранении экологических проблем.
**Ключевые слова:** «Зеленое пространство», «зеленый щит», экология, климат, изменение климата, зеленая природа, засуха, сельское хозяйство, агропромышленность, лесное хозяйство, декоративное дерево, плодовое дерево.

## BUXORODA EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH HARAKATLARI TARIXIDAN

Annotasiya
Ushbu maqolada hozirgi kunda eng katta ekologik muammolardan biri bo‘lgan iqlim o‘zgarishlarini bartaraf etishda Buxoro viloyatida amalga oshirilayotgan ishlar va islohotlarda yaqin tariximizda o‘lkaga kirib kelgan manzarali daraxt yangi navlari, ularning iqlimlashtirilishi tarixiy manbalar asosida ochib berilgan. Shuningdek, “yashil makon” tashabbusi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar va uning ekologik muammolarni bartaraf etishdagi o‘rni haqida maqolada atroflicha fikr yuritilgan.
**Kalit so‘zlar:** “Yashil makon”, “yashil qalqon”, ekologiya, iqlim, iqlim o‘zgarishi, yashil tabiat, qurg‘oqchilik, qishloq xo‘jaligi, agrosanoat, o‘rmon xo‘jaligi, manzarali daraxt, mevali daraxt.

**Kirish.** Sovet hokimiyati dastlabki yillarida mahalliy rahbar kadrlar O‘zbekiston iqlim sharoitiga, xususan cho‘l va dasht mintaqalaridagi qum ko‘chishlari, erroziya va chang-to‘zonlarga befarq bo‘lishmagan. 1924-1925-yillarda hukumat rahbari Fayzulla Xo‘jayev kabilar tashabbusi Buxoro shahrini shamol, chang-to‘zonlardan, qum ko‘chishi, issiq,quruq havo va garmseldan himoya qilish maqsadida shahar atrofida yashil o‘simliklardan o‘rmon, “yashil qalqon” barpo etish harakati boshlangan. Ushbu qum ko‘chishi va bo‘ronlarga hukumat darajasidagi kurash natijasida 1925-1941-yillarda Buxoro vohasining shimoliy-sharqiy qismida butasimon daraxtlardan saksovul, qandim, cherkez, yulg‘unlardan iborat uzunligi 120 km, kengligi 1,3 km li “yashil qalqon” hosil qilingan. Hatto, keyinchalik Mo‘g‘ilistondan qorasaksovul urug‘i olib kelinib, bir butasi 3,5 tonnagacha qumni saqlab qoladigan saksovul-zorlarga asos solingan.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Buxoro viloyati hududi asosan cho‘l mintaqasida joylashgani sababli tarixning barcha bosqichlarida tabiat injiqliklariga qarshi kurashish masalalsi dolzarb bo‘lib kelgan. bular haqida avvalo birlamchi manbalarda qimmatli ma’lumotlar keltiriladi. Xususan mazkur maqolada, O‘zbekiston Milliy arxivi fondlarida saqlanayotgan materiallar, ushbu fondlarda o‘lkada o‘rmon xo‘jaligini yo‘lga qo‘yilishi xususida qimmatli ma’lumotlar mavjud. Shuningdek, “Turkiston to‘plami” sahifalarida XX asr dastlabki o‘n yilliklarida o‘lkaga ko‘chirilgan rusiyzabon aholi bilan birga yangi ekin navlari, xususan manzarali daraxt yangi navlari kirib kelishi haqida boy ma’lumotlar keltiriladi [4]. Shuningdek, davriy matbuot va geografiya fani tadqiqotchilari tomonidan yaratilgan kitob va risolalarni ham keltirib o‘tish mumkin[6].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Qadimgi zamonlardan mintaqamizda hosil bermaydigan, qurilishbop va o‘tin maqsadida hamda sovuqdan saqlanishga qaratilgan, yoxud soya-salqinlikni ta’minlaydigan Sharq chinori, terak, tol, gujum, tog‘ va tog‘oldi hududlarida o‘nlab tur butasimon daraxtlar, sahro va cho‘llarda saksovul va yulg‘un, ro‘yon, davak, ravoch kabilar mavjud edi. Agar ushbu o‘simlik va daraxtlar yaxshi saqlab qolinganda, Buxoro vohasini “yashil himoya devori” yuzaga kelgan bo‘lardi. Biroq, 212 ming gektarda “yashil qalqon” barpo etish ishlari bir qator obyektiv va sub’yektiv omillar tufayli to‘xtab qolgan. Birinchidan, 1941-1945-yillardagi urush tufayli butun imkoniyatlar front ehtiyojlariga sarflanib o‘rmon barpo etish ishlari ikkinchi darajaga tushgan. Ikkinchidan, XX asr 50-60-yillarida paxta yakkahokimligi kuchayib, saksovulzorlar tugatildi. Buxoro bozorlarida har yili 40 ming tonnagacha saksovul ko‘miri sotildi. Qizilqumni o‘zlashtirib paxta maydonlarini kengay-tirish siyosati tufayli “cho‘l o‘rmonlari” tugatildi. Mustaqillik yillarida “yashil qalqon”ni qayta tashkil etish uzoq talab qilindi [8]. Nafaqat “yashil qalqon” bilan bog‘liq tadbirlar to‘xtatib qo‘yilibgina qolmay yildan-yilga kuchayib borayot-gan paxta yakkahokimligi Buxoro, Toshkent, Xorazm vohalarida iqlimga mos bo‘lgan poliz ekinlari (qovun, tarvuz, oshqovoq), boshoqli ekinlar (mosh, kunjut, tariq), sada gujum (qayrag‘och), moshmurut, balx tuti, shotut, majnuntol va jiyda kabilarni siqib chiqardi.

Sovet hokimiyati yillarida mevali va ixota daraxtlarini parvarishlash masalalarida reja hamda aniq loyiha asosida ish ko‘rish jihatlariga amal qilinmagani namoyon bo‘ladi. 1950-1960-yillarda asosiy e’tibor mintaqalar iqlimiga mos mevali va manzarali daraxtlarni ekish va ko‘paytirishga e’tibor qaratilgan bo‘lsa, 1960-yillarning 2- yarmi – 1970-yillardan

boshlab esa, tuya, Qrim sosnasi, akasiya, qayrag‘och, tut, terak, eman, shumtol, yapon saforasi kabi manzarali daraxt navlarini ko‘paytirish va ekish asosiy o‘ringa chiqdi [1].

**Tahlil va natijalar.** Sovet hokimiyati yillarida ziddiyatli yechgan jarayonlar o‘simliklar va ular yangi navlarini joriylantirish bilan birga, “ilm-fan inqilobida erishilgan yutuqlar insonni tabiat qonunlaridan ustun qilib qo‘ydi”, “Biz tabiatdan in’om kutishimiz kerak emas, undan tortib olishimiz zarur” kabi noto‘g‘ri tasavvurla yonma-yon amal qildi. Oxir-oqibatda hukumat qabul qilgan qaror va farmonlar qog‘ozda qolib, amalda tabiat va inson o‘rtasidagi muvozanat buzilishlari ayniqsa, 1981-1985-yillarda kuchaydi. Ko‘kalamzorlashtirish tadbirlari butun vohalar, shaharlar bo‘ylab emas, balki alohida ajratilgan bog‘, park, bulvar, xiyobon (skver)larda olib borildi. Bu esa manzarali daraxtlarning xorijiy navlarini iqlimlashtirish, joriylantirishni keng quloch yoyishga imkon bermadi.

Yana bir muammo, sovet hokimiyati yillarida (ayniqsa, XX asr 80-90-yillarida) shaharlarni ko‘kalamzor-lashtirishda igna bargli daraxtlar ya’ni, archa (mojevennik), qarag‘ay, terak, tikandaraxt hudud iqlimiga mos bo‘lmagan daraxtlar ko‘p ekilgan. Bunday daraxtlar shovqin, chang va zararli havoni oz yutib, o‘zidan yetarlicha kislarod chiqarmay-di. Jumladan Buxoro shahrida istiqlolgacha o‘zidan kislarod ko‘p chiqaradigan iqlimga mos keng bargli daraxtlar ekish umuman nazardan chetda qolgan [1].

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda shiddat bilan kechgan urbanizasiya (shaharlashuv) jarayonlari yillar davomida o‘stirilib, parvarishlab kelinayotgan daraxtlar, o‘simliklar dunyosiga ham ma’lum ma’noda qirg‘in keltirgan-ligini ham inkor etmaslik kerak. Shaharsozlikda aholi ko‘payib borishi bilan aglomerasiya (shaharlarning ken-gayishi), konorigurasiya (shahar qiyofasi), kontrastlik (shahar-dagi qulaylik imkoniyatlari) jarayonlari tez kechayotgani ijobiy holat sifatida baholansada, Respublika shaharlari atrofidagi tumanlar maydoni hisobidan kengayib bormoqda. Oxir-oqibatda ushbu tumanlardagi botanik maydonlar, mevali va manzarali daraxtlarning mahalliy va xorijiy navlari kesib yo‘qotildi. Yoxud ayrim “noyob, tarixiy yodgorlik”ka dahldor daraxtlar faunasi ham kesilib tashlangani bilan bog‘liq dalillar uchrab turibti. Shaharlarda aglomerasiya ichdan zichlashish orqali ham yuz berayotgani oqibatida uy-joy binolari qurish, turistik ehtiyojlar uchun mehmonxona, hostellar bunyod etish, muassasa va tashkilotlar idoralari uchun qabulxonalar ochish oqibatida yashil maydondagi manzarali va mevali daraxtlar kesib yo‘qotilgani, bu borada shahar mahallalari aholisi bilan rahbarlari, tadbirkorlar o‘rtasida anglashmovchiliklar, tortishuvli holatlar kelib chiqayotganligi Ommaviy axborot vositalari orqali xabar qilinayotgani odatiy ahvolga aylandi [3].

Jumladan, Buxoro shahrida istiqlolning 1991-2021-yillari davomida (30 yil ichida) yashil maydonning 1 kishi hisobiga to‘g‘ri kelishi 7,00 kvadrat/metrdan 6,05 kvadrat/-metrga kamaydi. Shunday ham shaharda yashil maydonlar dunyoda belgilangan me’yorlardan 8,2 marta kamdir. Buxoro shahri yashil maydon bo‘yicha dunyo reytingida birinchi o‘rinda turadigan AQSHning Sharlotta shahri (bu shaharni 68 foizi yashil maydon uchun ajratilgan – dissertant)dan 93 baravar farq bilan ortda kelgan [2].

Buxoro shahrining birgina Mustaqilli ko‘chasida 1991-2015-yillar davomida bo‘yi 6-7 metr atrofida bo‘lgan 2000 tup daraxtdan bor-yo‘g‘i 200 tupi saqlab qolingan xolos. Holbuki BMTning Yunesko tashkiloti tomonidan muhofazaga olingan Eski shahar qismida qurilganiga 1-1,5 asrdan oshgan 12 ta daraxtga noyob, tarixiy yodgorlik maqomi berilgan[5].

Istiqlolning keyingi 4-5-yilida kishilar leksikoniga “yashil qalqon” atamasi bilan birga “yashil makon”, “yashil belbog‘”, “yashil maydon”, “yashil chiziq”, “yashil karidor” kabi tushunchalar tez kirib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasida kuchayib borayotgan ekologik xavf tufayli tabiatni muhofaza qilish vazifalari kuchayib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2022-yil 2-fevraldagi videoselektorda “yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirishning dolzarb muammolari haqida nutq so‘zladi. Undan oldingi 2018-2021-yillarda O‘zbekiston Prezidenti va Hukumati qabul qilgan bir qator farmon va farmoyishlar mamlakatda ekin navlari maydonlarini kengaytirish, ular turlari xilma-xilliginita’minlashda muhim qadam bo‘ldi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-aprelda imzolagan “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruv tizimini takominlashtirish to‘g‘risida”gi farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 8-maydagi “Buxoro, Nukus, Xiva va Urganch shaharlari atrofida 2020-2021-yillarda ja’mi 30 km masofada “yashil belbog‘” himoya daraxtzorlari barpo etish to‘g‘risida”gi, 2018-yil 4-maydagi “Buxoro viloyatining cho‘l hududlarida “yashil qalqon” himoya o‘rmonzorlari, shumg‘iya (sistanxe) va isiriq o‘simliklari plpntasiyalarini barpo etish hamda xomashyosini qayta ishlashni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoyishi kabilar bu sohada muhim omil bo‘ldi. Jumladan, Buxoro viloyat hokimligi qarori bilan (2021-yil 11-iyul) shahar shimoliy-g‘arbida uzunligi 197 km, en 10 km bo‘lgan “yashil qalqon” qilishga kirishildi. Xorijiy moddiy donor mamlakatlardan 10 mln AQSH dollari miqdorida yordam olindi. 2018-yil 4-may qaroridan so‘ng 212 ming gektar yerda “yashil qalqon” yaratildi, biroq moliyaviy qiyinchiliklar tufayli bu ishlar susayib qoldi. Yoxud “yashil makon” loyihasi bo‘yicha birgina Buxoro shahrida 2020-2021-yillarda 365 ming dona mevali va manzarali daraxtlar ekildi. Biroq bu raqam mavjud ehtiyojni 9 foizini qondiradi xolos. O‘zbekiston shaharlarida yashil maydonlar bor-yo‘g‘i shahar o‘simlik maydonining 2-5 foizini tashkil etadi. Xorijdan gulsimon daraxtlar keltirib o‘tqazish kengaymoqda [6].

**Xulosa.** Shunday ekan har birimiz ekologik muammo-larga befarq bo‘lmagan holda, tabiatni asrash, uni kelajak avlodlarga tugal yetkazish uchun mas’ulmiz. Buning uchun esa yaqin tariximizda mintaqaga kirib kelgan va iqlimlash-tirilgan manzarali daraxt navlari haqidagi manbalarni tahlil qilib ularni sodda, xalqchil tilda kitobxonlarga yetkazish biz tarixchilarning vazifasidir.

## ADABIYOTLAR


1. Buxoro viloyat davlat arxivi, 1188-fond, 1-ro‘yxat, 11-yig‘ma jild, 47 yig‘ma jild.
2. Buxoro shahar obodonlashtirish boshqarmasi joriy arxivi, 2015, 2016, 2017, 2018, 2019, 2020, 2021-yilgi hisobotlari.
3. Buxoronoma gazetasi, 2020-yil 14-iyul.
4. Истребление саксаула // Туркестанский сборник. – Том 465.
5. Keksa me’mor Tuyg‘un Boboyev va YUNESKO xodimi, arxeolog Boboyev S. bilan shaxsiy muloqot 2021-yil 20-mart.
6. Qayimov A.Q., Turok Dj. Aholi yashash joylarini ko‘kalamzorlashtirish. Fan va texnologiya, 2012.
7. Лесничий А., Лукин. Амударьинские кызыл-кумы // Туркестанский сборник. – Том 445.
8. Nazarov I.Q., Allayorov I.Sh. Buxoro geografiyasi. – Buxoro-1994. – 67 bet
9. Саксауль // Туркестанский сборник. - Том 493.
10. O‘zbekiston teleradiokompaniyasi ko‘rsatuvlari, 2018-yil 25-avgust (soat 17:30-18:00).
11. O‘zMA, I 103. fond, 1 – ro‘yxat, 1052 – yig‘ma jild, 168 – varaq.
12. Xalq so‘zi gazetasi, 2018-yil 10-iyun